

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ XO‘JALIK INSTITUT**

**VETERINARIYA, ZOOTEKNIYA VA QORAKO‘LCHILIK
FAKULTETI**

5620600-Zootexniya (tarmoqlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi

IBRAGIMOV BAHODIR BAXTIYOROVICHNING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu:“HAR XIL ZOTLI OTLARNI MASHQ QILDIRISH
VA SINASH”**

(referativ tarzda)

Ilmiy rahbar: professor,

_____ D.Xolmirzayev

**Zootexniya, hayvonlar
genetikasi va urchitish
kafedrasi mudiri,dotsent**

_____ E.S.Shaptakov

№ _____sonli yig‘ilish bayoni

“ _____” _____2014-yil

**Veterinariya,zootexniya va
qorako‘lchilik fakulteti
dekani, dotsent**

_____ N.O.Farmonov

“ _____” _____2014-yil

SAMARQAND – 2014

M U N D A R I J A

Kirish.....	3
I.Adabiyotlar sharhi.....	8
II.Tanlangan mavzu bo'yicha muammolarning qo'yilishi, qo'llaniladigan uslubiyatlar.....	18
III.Asosiy qism.....	19
3.1.Tanlangan mavzuni yechimi va yoritilish.....	19
3.2.Otlarni mashq qildirish va sinashning ahamiyatini o'rganish.....	22
3.3.Otlarni mashq qildirish va sinashda texnika xavfsizligini o'rganish.....	24
3.4.Salt miniladigan otlarni mashq qildirish, sinash va xillari.....	26
3.5. Salt miniluvchi otlarni otchoparda sinash.....	28
3.6.Uzun tizgin yordamida otlarni mashq qildirish.....	29
3.7.O'rganiladigan salt miniluvchi zotlarga tavsif.....	34
3.8.Sof qonli salt miniluvchi Angliya ot zotiga tavsif	36
3.8.1. Axaltaka ot zotiga tavsif	39
3.8.2. Arab ot zotiga tavsif	41
3.8.3. O'rganiladigan salt miniluvchi ot zotlarining tana o'lchamlari bo'yicha tavsif	45
3.8.4 O'rganiladigan salt miniluvchi ot zotlarini GIT bo'yicha rekord chaqqonligini o'rganish.....	47
I V. Ekologik muammolar, hayot faoliyati va texnika xavfsizligi.....	48
Xulosalar	54
Ishlab chiqarishga beriladigan taklif va tavsiyalar	56
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	57
Ilovalar.....	59

KIRISH

Mustaqil O'zbekiston o'zi tanlagan tinchliksevarlik va barqaror taraqqiyot, huquqiy davlat qurish yo'lidan bosqichma – bosqich rivojlanib bormoqda. Xalq xo'jaligini barcha jabxalarida bozor iqtisodiyotiga o'tishga qaratilgan tub islohotlarni amalga oshirmoqda.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichlarida eng avvalo qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining isloh qilishga katta ahamiyat bermoqda.

Qishloq xo'jaligini barqaror taraqqiyotiga berilayotgan e'tibor tufayli keyingi yillarda moddiy ne'matlar ishlab chiqarish salohiyatini saqlab qolishga erishilayotir. Respublikamizda agrar munosabatlarni isloh qilish uchun qishloq xo'jalik korxonalarining tuzilmasining qaytadan tashkil etish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirishni yanada ko'paytirib berish uchun sharoit yaratishda samarali texnologik jarayonlarni hayotga tadbiiq etish lozim.

Hozirgi kunda qishloqda agrar va iqtisodiy munosabatlarining huquqiy asoslari barpo bo'layotganligi. Qishloq xo'jalik yuritish mexanizmini yangi asoslari shakllanayotganligi, sohani boshqarish tamoyillari va tizimi o'rganilayotganligini ta'kidlash joizdir. Xalqimizni oziq – ovqat bilan taminlash uchun, umuman xalq xo'jaligini tanglikdan chiqarish siyosatini tadbiiq qilishda avvalambor qishloq xo'jalik sohasini rivojlantirishda ustivorlik berishimiz zarur, pirovardida bular peshtaxtalarni to'ldiradi dasturxonimiz to'kin bo'ladi.

Prezidentimiz bu borada qishloq xo'jalik to'g'risida so'z borarkan qishloq xo'jaligi bilan ma'suliyatli odamlar yuqori malakali rahbar va mutaxassislar o'z mamlakatining farovonligi uchun qayg'uradigan fidoyi kishilar shug'ullanishi kerak deb ta'kidlagan edi. Shuningdek mulk masalasi hal qilinmasdan turib mehnatni tashkil etishning har qanday mukammal tizimi ham samara bermaydi. Muvaffaqiyat qozonmaydi. Shu borada chorvachilikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi. O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va

choralari» nomli asarida O‘zbekiston iqtisodiyotining izchil o‘shishi sur‘atlari ta’minlanganligi xalqimizning fidokorona mehnati va mamlakatimizda mehnatni rag‘batlantirish siyosatini samarasi sifatida tashqi savdo geografiyasida sifat jihatidan o‘zgarishlar xususan raqobatbardosh tayyor mahsulot ulushining izchil oshishi.

O‘zbekistonning keyingi yillarda eksport sohasida erishgan yutuqlari iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar, zamonaviy bozor infratuzilmasining shakllantirilganligi qayd etilgan. Moliyaviy inqiroz dunyo bo‘yicha va bartaraf etishga qaratilgan bo‘lib xarajatlar AQSH da 3,5 trillion. Dunyo bo‘yicha 9,4 trillion AQSH dollari miqdorida zarar etkazilgan.

Bu ko‘satkich Amerika qo‘shma shtatlarining yalpi ichki mahsulotining 25,0 foizi shuningdek, Buyuk Britaniya 1 trillion, Germaniya 833 milliart, Yaponiya 326 milliart, Xitoy 586 milliart AQSH dollari miqdorida sarflangan. Ayniqsa shu yilqichilik chorvachilikning muhim sohasi bo‘lib ishchi sifatida mahsulot olishda sut, go’sht, sportda tutgan o‘rni beqiyosdir. Qadimdan O‘zbekistonda yilqichilik keng rivojlanib davlatlararo savdo sotiqni yo‘lga qo‘yishda millat va elatlarni urf-odatlarini madaniyatini targ‘ibot qilishda ipak yo‘lini tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. O‘zbekiston ipak yo‘lini tashkil etishda asosiy markaz hisoblangan. Otlar xalqlarning hayotida tutgan o‘rni beqiyosdir. Mahsulot sotishda shuningdek, ishchi sifatida ya’ni yuk ko‘tarishda, hayvonlarni boqishda, sport ishlarida tutgan o‘rni beqiyosdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining chorvachilikni jumladan, yilqichilikni har tomonlama rivojlantirish to‘g‘risida chiqargan farmon va qarorlari katta ahamiyatga egadir. Maqsad xalqimizni farovonligini oshirishga qaratilgan. Masalan “Yaylov chorvachiligi qo‘roko‘lchilik, qo‘ychilik, uyur yilqichiligi va tuyachilik xodimlarini ijtimoiy jihatdan himoya qilishning qo‘shimcha tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 199-yil 7-yanvardagi farmoni, shuningdek Naslchilik to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 1-dekabrdagi qonuni va “Qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo‘nalishlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil

24-mart farmonida ko'rsatilganidek, fermer xo'jaligi yuridik shaxs sifatida asosan xususiy korxona shaklida keyinchalik ular turli shakldagi kooperasiyalarga tanlov asosida ellik yilgacha uzoq muddatli asosda beriladi.

Davlatimiz raxbarining tashabbusi bilan 1992- yil parlamentimiz "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonuni va qator qarorlar qabul qilindi va sog'lom avlod uchun davlat dasturi mavjud. Sportlar ichida ot sportini tutgan o'rni beqiyosdir.

Chorvachilikni rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 -yil 23- martdagi PQ-308 sonli chiqargan "Shaxsiy yordamchi, dehqon, fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chorva tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining " Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida"gi 2008- yil 21- apreldagi PQ 842- qarori shu sohani rivojlantirishga qaratilgan.

Mavzuni xalq xo'jaligidagi dolzarbligi. Hammamizga ma'lumki, mamlakatimiz aholisini har tomonlama barkamol tayyorlashdir. Bizga hozir ham kelajakda ham sog'lom, zabardast har tomonlama yetuk o'g'il-qizlar kerak. Bu bois bobomiz sohibqiron Amir Temurning "Farzandlari sog'lom Vatan qudratli bo'lur"degan iborasi yoshlarimizga atalgan. Prezidentimizning yoshlarga bo'lgan g'amxo'rliqi beqiyosdir. Misol uchun bolani yoshlikdan ot minib chavondoz qilishga, kurashga tushurib paxlavon qilishga qaratilgan.

Sport – milliy g'urur, iftixor kabi eng ulug' fazilatlarni har qaysi shaxsda uyg'otadi. Millatimiz vakillari dunyo chempioni bo'lib qaytsa, buning nimaligini tula tasavvur qila olmaymiz.

Shu bois ot minib, mashq qildirish va sinash muhimdir. Bu esa mavzuni dolzarbligini bildiradi.

Mavzuning ilmiy-amaliy asoslanishi. Otlarni mashq qildirish va sinash tartibi bo'yicha tushuncha. Otlarni mashq qildirish va sinab ko'rish ilmiy asosda

amaliyotda sinab ko‘rib ishlar amalga oshirilsa inson tafakkurining va mehnatining mahsuli sifatida qadim zamonlarda paydo bo‘lgan bo‘lib, 3 sistemaga ya’ni tartibga bo‘linadi: sharqona, qadimiy va XVIII asrda Angliyada sof qonli miniladigan otlar zotini yaratilishi bilan bog‘liq bo‘lib – antiqa tartibdir. Otlarni mashq qildirish va sinashning meyor asosda amalga oshirilsa ijobiy natijalarga erishiladi. Otlarni sinovga tayyorlashdan oldin ularni tegishli mashq qildirib chiniqtirish davridan o‘tish kerak. Chiniqtirishga ko‘proq yosh otlar moyil bo‘ladi. Chunki ularning organizmi yosh bo‘lganligidan bajarilishi kerak bo‘lgan metodik rejali va funksional har xil mashqlarni bajarishda yaxshi samara beradi. Otlarni ilmiy asosda mashq qildirish va sinnash ularning irsiy sifatleri o‘zida nomoyon bo‘lib bu esa o‘z navbatida otlar zotini yaxshilashga olib keladi.

I. ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining chorvachilikni har tomonlama rivojlantirish to'g'risida chiqargan farmon va qarorlari katta ahamiyatga egadir. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan 1992-yil 7-yanvarda parlamentimiz, jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi qonunni va qator qarorlar qabul qilinishi boshqa sportlar singari ot sportini rivojlantirishga qaratilgan. Sport otlarini mashq qilish va sinashda yoshlarni zabardast qilib tarbiyalashda bu mavzuni bilish dolzarb masalalardan biridir. Maqsad xalqimizning farovonligini oshirishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996- yil martdagi 9-sonli "Chorvachilikni xususiylashtirishni davom ettirish va xususiylashtirishni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori chorvachilikni rivojlantirishga qaratilgan 1995-yil 21-dekabrda "Naslchilik to'g'risida" Davlat qonuni muhim ahamiyatga ega. Bunda mulk masalasini hal qilmasdan turib mehnatni tashkil etishning harqanday mukammal tizimi ham samara bo'lmaydi muvaffaqiyat qozonmaydi. 1998 -yil 30-aprel "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi davlat qarori

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006- yil 23-martdagi PQ-308 sonli "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarni ko'paytirishni rag'batlantirish to'g'risida"gi hamda 2008 yil 21 apreldagi PQ-842-sonli "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarni ko'paytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori bilan chorvachilikka ixtisoslashgan fermer va boshqa xo'jaliklarga, shuningdek parrandachilik korxonalariga ajratilgan sug'oriladigan yerlar faqatgina yem-xashak ekinlari ekish uchun mo'ljallangan va davlat ehtiyoji uchun paxta hamda donli ekinlar ekishda foydalanmasligi belgilanganligi, chorvachilik fermer xo'jaliklari va chorvachilik fermelari chorvachilik mahsulotlarini, uning qayta ishlangan mahsulotni sotish tushumidan davlatning maqsadli jamg'armalari, hamda maktab ta'limi jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan ozod

qilinganligi haqida va boshqa ko'plab Respublika Vazirlar Mahkamasining farmoyishi hamda qarorlarini keltirish mumkin.

Internet ma'lumotlariga ko'ra Professor Chijik A.I ning ma'lumot berishicha otlarning tirik vazni va tana indeklari o'rganilganda bu ko'rsatkichlar turlicha bo'lib, tirik vazn katta yoshdagi salt miniluvchi otlarda 400-500 kg, yo'rtoqi otlarda 550-600 kg, og'ir yuk tortuvchi otlarda 800-1000 kg ni tashkil etgan. Tana indekslaridan suyakdorlik indeksi salt miniluvchi otlarda 12,1 %, og'ir yuktortuvchi otlarda 16,2 %; uzunlik indeksi salt miniluvchi otlarda 99,6 %, og'ir yuktortuvchi otlarda 109 %, ko'krak qafasi aylanasi indeksi salt miniluvchi otlarda 8-15 %, og'ir yuktortuvchi otlarda 25-30 % ga teng bo'lgan.

Bobiev I.F. (1987) ni yozishicha MDH chavondozlari 1952-yildan boshlab xalqaro ot o'yinlarida qatnashib yaxshi natijalarga erishgan. Dunyo miqyosidagi anjumanlarda qatnashib, 14 ta olimpiada medali shundan 6ta oltin , 4ta kumush va 4ta bronzani olishgan. Ot sporti boy tarixga ega bo'lib xalqni g'urur iftixori hisoblanib, dunyoga mashxur ot chavondazlarini etishtirib chiqqan. Filotov S. – chempion VII olimpiada o'yinida Rim shaxrida 1960, Ivan Kozekov chempion XIX olimpiada o'yinida Mexiko shaxrida 1968 yil Elena Petushkova dunyo chempioni 1970, Yuriy Kolut, Mixail Kopeykin, Vera Misevich otlarni oliy darajada salt minib yurish elementlarini bajarishdi, xalqaro master sporti bo'lishgan.

Balakshin O. (1992) ma'lumotlariga qaraganda AQSH da otlarni sakratib choptirish haqida yozib yil bo'yi yo'rtoqi otlar choptirib faqat qishda dam berilganligi izoh qilinadi. Otlarda sovrin uchun musobaqalanib eng yaxshi natijalarga erishmoqda. 1200 m masofani 1.11 sekunda 1609 m masofani 1.34 sekunda bosib o'tgan.

2008- yilda (V.V.Kalashnikov, 2008) dunyo mamlakatlarida 667 ming tonna (so'yim og'irligidagi) ot go'shti ishlab chiqarilgan bo'lib, ushbu mahsulotning 23,4 % Xitoy, 11,9 % Meksika, 8,4 % Argentina, 7,5 % Qozog'iston, 5,6 % Mangoliya, 4,2 % Qirg'iziston, 3,1 % Braziliya, 3,0 % AQSH, 21,3 % boshqa davlatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Politova M.A (2006) ma'lumoti bo'yicha Germaniyada yarim zotli yilqichilik tashkiloti otlarni otlar sportining hamma o'yinlaridagi natijalari qattiq hisob – kitob qilib keladi. Ot sport Federatsiyasi har yili naslli va sport otlar bo'yicha to'plam chiqaradi. Masalan to'siqlardan o'tib eng yaxshi natijalarga erishgan otlar ularni qo'yidagicha izohlaydi: otning laqabi; tusi, jinsi tug'ilgan yili; otasi; zoti; chavandoz; yutgan puli; reytingi. Asosan Gannover va Golshtin ot zotlarini 2005 yil sportdagi natijalarini kuzatib, Golshtin zoti g'alaba qozonganligini ta'kidlaydi.

Nikolaeva A.A, Stepanyan K.P. (2006) yozishicha Budeniy zoti sport otlari orasida faqat Rossiyada emas dunyo miqyosida ham ishonchli o'rinni egallab kelmoqda. Bu zot ot sportining har xil musobaqalarida, ayniqsa ot sportining klassik o'yinlarida ko'p ishtirok etib kelmoqda. 1979 – 2010 yillarda tug'ilgan 756 Budeniy zoti 1983 – 2004 yillarda har xil musobaqalarda qatnashib, 10 ballni sinov ichida 9 ballgacha yuqori baholangan eng yuqori baholanib 9 balla olgan izyum ayg'iri 46 hisoblanadi.

Laskov A.A, Sergienko S.S, Sergienkolarning G.F. (2006) ma'lumoticha, yosh otlarni salt minilib oliy darajada mashq qildirishda ishni boshdan qo'lga olmoq muhim ahamiyatga ega. Buning uchun otni fe'l – atvorini yaqindan bilish, tana tuzilishini baholash. Sport otlarni tanlashda muhimdir.

Sport otlarni tayyorlashda va eksport qilishda yoshlikdan parvarishlash va qo'lga o'rgatish kerak. Otlarni tanlashda jag' oralig'ining kengligi, ensa suyagining uzunligi, otland va bo'yin suyaklarining uzunligi ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shamsiev A.G. (2006) yozishicha ot zotining ish qobiliyatchanligini oshirishda yilqichilikda naslchilik ishi muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Otchoparlarda otlarni mashq qildirish va sinash uning ish qobiliyatiga ichki tuzilishiga va konstitutsiya sifatiga baho berib, naslchilikda foydalanish uchun eng yaxshilarini tanlab olinadi. Fiziologiyaning nuqtai nazaridan, deb yozadi olimlardan Laskov A.A. (1989 -1991), Alekseev M.YU (1989) larning fikricha, mashq qilayotgan davrda organizmni ishga solib qobiliyatchanligini oshishiga va boshqa mashq qilinmaganga nisbatan ustun ekanligi tasdiqlangan. 2002-yili

Tojikiston Respublikasida 40 yil mobaynida kollektiv olimlar, mutaxassislar, ot o'rgatuvchilar bilan birgalikda Laqay ot zoti, sof qonli salt miniluvchi va arab ot zotlarini chatishtirish natijasida yangi tojik zoti yaratildi.

Sergeeva E.B. (2006) ning bergan ma'lumoti bo'yicha Orlov zotini yaratilganligiga 200 yildan oshiq vaqt o'tdi. Bu zot otchoparlarda yo'rtib chopish bo'yicha sinalmasdan, ot sportida ham har tomonlama ish qobiliyatchanligini ko'rsatib kelmoqda. YArim asrdan ko'proq yo'rtoqi ot zotlari klassik o'yinlarda o'ynalib yaxshi natijalarga erishib kelmoqda, ammo bu haqda jurnal ippologiya adabiyotlarda faktlar keltirilmagan.

Olimpiada o'yinlarida yo'rtoqi ot zoti Orlov, rus, Amerika zotlarini klassik o'yinlardagi natijalarini ya'ni ish qobiliyatchanligini bir – biri bilan solishtiradigan bo'lsak, otlarni oliy darajada salt minilib mashq qildirish bo'yicha Orlov zoti 1 – chi o'rinni, rus yo'rtoqisi 2 – chi o'rinni; to'siqlardan o'tish bo'yicha rus yo'rtoqi 1-chi, Orlov 2 – chi o'rinni egallagan; uch kurash o'yini bo'yicha Orlov zoti 1 – chi o'rinni, rus yo'rtoqisi 2 – chi o'rinni olgan. 2004 yili Afina shaxrida olimpiada o'yinida ayg'ir Balagur 52 ta qatnashuvchilar orasida 23 o'rinni olgan.

Sergienko V.S. (2006) ma'lumoti bo'yicha otlarni salt minilib oliy darajada mashq qildirish eng chiroyli va klassik o'yinlar ichida eng qiyinidir. Chavandoz otni to'liq o'ziga bo'ysindirib, otda oliy darajada yurishning elementlarini passaj, piafere, polupiruet, galop chopishda oyoq tashlanishini almashtirish va boshqa elementlar kiradi. Eng yaxshi natijaga erishgan otlar axaltaka zotini Absent, Ukraina salt miniluvchi zotini Ixor, Traken zotini Pepel salt miniluvchi zotni Tarmu, Orlov yo'rtoqisi, Balagur klichkali otlar eng yuqori darajaga erishgan.

Sport otlarni ishga layoqatligini asosan o'ziga xos darajalariga ya'ni kuchliligi, vazminligi, harakatchanligi asablarning qo'zg'alishi va tormozlanish jarayonlariga bog'liq.

Xolmirzaev D. (2006) ning yozishicha O'zbekiston Respublikasining Samarqand viloyatini tog' oldi, tog' sharoitida va Qoraqalpog'iston Respublikasini yarim sahro mintaqalarida otlarni yaylovda boqishda kun tartibiga rioya qilish muhim ahamiyatga egadir.

Idiyatulin X.S. (2004) kuzatishlari asosida Boshqird zotli otlar jussasining unchalik katta emasligini, ularning yagʻrin balandligi 139-145 sm ni, koʻkrak aylanasi 145-150 sm ni, kaft aylanasi 19-19,9 sm ni, tirik vazni esa 500 kg ni tashkil etganligini qayd etadi. Alekseev N.D, Stepanov N.P (2006) Yakut ot zotining Megejek tipidagi qulunlarning 6 oylikdagi tirik vazni 220,6 kg, 1,5 yoshli qulunlarda 320,6 kg, 2,5 yoshli qulunlarda 380,0 kg, katta yoshdagi biyalarda 461,7 kg, katta yoshli aygʻirlarda 514,2 kg boʻlganligini taʼkidlagan.

Vladimirov L.N, Vinokurov I. N, Kalashnikov V.V, Sergienko S.S lar (2004) tomonidan Yakut zotli otlar tugʻilgandan keyingi birinchi yilda jadal rivojlanganligi va bu zotdagi otlarning oʻsish va rivojlanishi 6-7 yoshgacha davom etishini taʼkidlaydi.

Jabe zotli biyalarning bola berish qobiliyati kuzatishlar asosida oʻrganilganda (Alibaev N.N, Abubakirov X.A, Nayzabekov N.N, 2004) tajribadagi 4-10 yoshli biyalar birinchi marta qochirilganda toʻliq otalangan. Bu ushbu yoshdagi biyalarning etilish va tugʻish yoshida ekanligidan dalolat beradi.

Bulatov A, Voronov A larning (2005) maʼlumotlari boʻyicha, qishloq xoʻjalik hayvonlarini toʻla qimmatli oziqalar bilan oziqlantirish omillari orasida makro va mikroelementlar muhim oʻrinni egallaydi. Ular energiya toʻplashda oqsillar, uglevodlar, lipidlar modda almashinuvi qishloq xoʻjalik hayvonlariga qoʻshimcha minerallar berib, oʻsish va rivojlanishini oʻrganish maqsadida yoʻrtiqi zotlar ustida tajriba oʻtkazilgan. Tajriba Kurgan viloyatining Uval poselkasida bajarilgan. Ishni guruh tashkil qilinib, birinchi guruh xoʻjalik sharoitiga ozuqalar bilan, ikkinchi guruhga toʻligʻicha har bir bosh hisobiga 230 grammdan bentanin berilgan yaʼni maydalangan don bilan aralashtirilgan tugʻilgandan toʻyigacha davom etgan xulosa qilib aytganda tirik vazni tana oʻlchamlari boʻyicha nazorat guruhiga nisbatan va guruhi ustun ekanligi aniqlangan.

Melnikov V.M. (2005) ni takidlashicha Amerika qitʼasida 22 yildan beri oliy sovrin uchun sof qonli salt miniluvchi otlarni eng yaxshilarini, shuningdek bir fikrga ega boʻlgan chavandozlarni dunyoga maʼlum boʻlgan xoʻjalik DERBI DEN farm, Spendrift farm, Uvinfield farm, Kleyborn farmga toʻplab, otlarni choptirish

uynash uyinini ta'siz qarorini chiqarib sponsor fondlarni tashkil qilib kelmoqda. 1 chi final musobaqasi 1984 yil 10 noyabrda tashkil etildi.

Nikolaeva A.A, Stepanyan K.P (2006) yozishicha Budeniy zoti sport otlari orasida faqat Rossiyada emas dunyo miqyosida ham ishonchli o'rinni egallab kelmoqda. Bu zot ot sportining har xil musobaqalarida, ayniqsa ot sportining klassik o'yinlarida ko'p ishtirok etib kelmoqda. 1979 – 2010 yillarda tug'ilgan 756 Budeniy zoti 1983 – 2004 yillarda har xil musobaqalarda qatnashib, 10 ballni sinov ichida 9 ballgacha yuqori baholangan eng yuqori baholanib 9 balla olgan Izyum ayg'iri 46 hisoblanadi.

Nurmatovyu A, A.Bezverxovlarning (2006) ma'lumotlariga ko'ra chorvachilik fermasida bir kun transport o'rnida 2 ta otdan foydalanilsa faqat dizel yoqilg'isining o'zidan 6000 so'm tejaladi.

Palitova M.A. (2006) ma'lumoti bo'yicha Germaniyada yarim zotli yilqichilik tashkiloti otlarni otlar sportining hamma o'yinlaridagi natijalari qattiq hisob kitob qilib keladi. Ot sport federatsiyasi har yili naslli va sport otlar bo'yicha tuplab chiqaradi. Masalan tutinmalardan o'tib eng yaxshi natijalarga erishgan otlar, ularni qo'yidagicha izohlaydi: zotli chavandoz yutgan puli: retingi asosan Ganover va Golshten ot zotlarini 2005 yil sportdagi natijalarni kuzatib, Golshten zoti g'alaba qozonganligini ta'kidlaydi.

Yudaeva T.E. (2006) bildirishicha mart oyining boshida Florida shtatining auksionida 2 yoshli salt miniluvchi zot (Angler) 2 yoshli toy birinchi marta 2 metrlik masofani 0.09.8 sekundda birinchi marta qatnashib dunyo rekordini o'rnatgan. 16 mln. dollar yutgan.

Xolmirzaevning D. (2006) ta'kidlashicha bahorgi mavsumda yosh otlarning tirik vazni 40% gacha, katta yoshdagi otlarning tirik vazni 23 % gacha oshgan. Yoz mavsumda esa otlar tirik vaznning oshishi o'rniga ba'zi yillari kamayish kuzatilgan. YAylov o'tlarining kamayishi, haroratning ko'tarilishi, har xil hasharotlarning paydo bo'lishi bunga sabab bo'lgan. Kuzda yaylov o'simliklarining pishib etilishi, havo haroratining ancha pasayishi, qon so'ruvchi hasharotlarning yo'qolishi tufayli otlar semirgan.

Kalashnikov V.V. (2008), Rossiya va xorijiy mamlakatlarda utkazilgan kup sonli tajribalarning natijalariga kura uyur yilkichiligi yaylov chorvachiligining iktisodiy jixatdan eng samarali yunalishi xisoblanadi. Odatda koramol gushti ishlab chikarish tannarxining 100% deb oladigan bulsak, barcha mintakalardagi uyur yilkichiligi rivojlangan xujaliklarda ot gushti ishlab chikarish koramol gushti ishlab chikarishga nisbatan 2-3 marta kam xarajat talab kilib, ishlab chikarishning samaradorlik darajasi 36-148% ni tashkil etadi.

Timofeev M.U. (2008) Yilkichilik inson faoliyatining eng qadimgi kurinishlaridan biri xisoblanib, olti ming yillik tarixga ega. Xozirgi vaqtda uyur yilkichiligi Shimoliy Amerika, Osiyo, Avstraliya kabi tabiiy yaylovlarga boy bo'lgan xududlarda rivojlanganligini ta'kidlaydi.

Uyur yilkichiligi ayniksa Rossiya Fediratsiyasining Saxa(Yakutiya), Buryatiya, Xakasiya, Tuva, Boshqirdiston, Qalmik avtonom respublikasi, Astraxan, Orenburg, Novosibirsk, Omsk, Tyumen, Tomsk, Irkutsk, CHita viloyatlari, Oltoy, Krasnoyars o'lkalarida yaxshi rivojlangan.

www. fermer 20. ru internet saytida, otlar qadim zamonlardan beri insonlarga yo'ldosh bo'lib, bundan 10 ming yil oldin, Neolit davrida dunyoning turli: o'rmon, sahro, tog', yarim cho'l xududlarida yashashga moslashganligini qayd etilgan.

www. o-loshadka. ru internet saytidan olingan ma'lumotlarga ko'ra qorabayir ot zoti O'rta Osiyodagi eng qadimgi ot zotlaridan biri bo'lib, uning vatani O'zbekiston. Takidlanishicha eramizdan oldin O'zbekiston xududida yashagan mahalliy aholi jahonga mashhur Dovon avgumoklarini urchitish bilan shug'ullangan.

Xolmirzae D. (2006) takidlashicha har bir otga har tomonlama chuqur yondashish u bilan ishlashdagi yutuqlarning asosidir. Alohida-alohida yondashishning asosiy belgilar: 1. Tashqi ko'rinishi. 2. YOshi. 3. Zoti yoki buguni (duragayligi). 4. Jinsi. 5. Semizligi 6. Ishtaxasi. 7. Rivojlanishi. 8. Kelib chiqishi. 9. Mijozi. 10. Funksional turi.

Xolmirzaev D, Samibekov R.V. ning 2006 yil ma'lumotiga ko'ra otlarni egarlash ulardan ishlatish xarakteriga qarab 3ta asosiy tipga bo'linadi. Tortish kuchi orqali bajariladigan ishlar uchun mo'ljallangan, salt minish uchun mo'ljallangan va yuk tortish uchun mo'ljallangan abzallar. Sport otlarini egarlashda unga egarlaydigan abzallar ixcham kiygizilganda yopishib turadigan ish vaqtida tanani yaralamaydigan va otning ish qobiliyatiga xalaqit bermaydigan bo'lishi kerak. Otlarni abzallarini tanlashda uning katta kichikligiga qarab aniqlash muhimdir.

www.zooschol.ru/horses/porody/24.shtml internet saytidan olingan ma'lumotlarga ko'ra qorabayir zotli otlarning qarchig'ay balandligi 147-149 sm, ko'krak aylanasi 171-173 sm, kaft aylanasi 18,7-19,3 sm ni tashkil etadi.

Xolmirzaev D. (2008) yozishicha O'zbekistonda qorabayir zotli otlarni urchitish bugungi kunda xalq seleksiyasi yo'li bilan olib borilmoqdam yoki ilmiy seleksiya dasturi asosidami?

Xulosa qilib aytganda qorabayirlar xo'jalik va biologik jihatdan noyob xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Nurmatov A, X.Tog'aevlarning (2010) ma'lumotlariga ko'ra, oxirgi yillarda O'zbekistonda otlar bosh soni sezilarli darajada ko'paymoqda. 2001 yilda barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni 146,3 ming boshni tashkil etgan bo'lsa, 2005 yilda 151,5 ming bosh, 2008 yilda 168,3 ming bosh, 2010 yilda 180,6 ming boshni tashkil etgan.

Kolomets Yu. (2011) tomonidan ishlab chiqarishga kiritilgan taklifga binoan go'sht mahsuldorligini oshirish maqsadida "Xakkas" guruhiga mansub biyalarni rus og'ir yuk tortuvchi ayg'irlar bilan chatishtirish natijasida olingan qulunlarning 18 oyligida nimta og'irligini 180-185 kg, ot go'shti etishtirishning samaradorlik darajasini 100-105 % ga etkazish mumkin.

Internet 24.09.2011 www.zdravarus.ru ma'lumoti buyicha Talkar bo'rdokilash tajriba punktida otlarni bo'rdokilash yukori samaradorlikka ega. Bu punktda xar yili 20 mingdan ortik kozok zotli jabe tipdagi otlar burdokilanadi, 8-9

oylikdagi kulunlar 270 kg, birinchi bugim duragaylari 300 kg, burdokilash davomiyligi 60-70 kunni tashkil etadi.

Internet 07.09.2011 www.zdravarus.ru ma'lumoti bo'yicha Rossiya ot zavodlarida hozirgi rus yurtoki zotining ayg'irlarini o'rtacha tana ulchamlari: qarchig'ay balandligi 161,5 sm, gavdaning qiya uzunligi 162,5 sm, ko'krak aylanasi 184 sm va kaft aylanasi 19,9 sm ni tashkil etadi. Biyalarda esa 160,1; 162,0; 183,9; 19,5 sm teng. Tuslari kupincha turik 44 fon, kora 23 foiz, kuk 16 foiz va mala 11 foizga teng.

Internet 24.09.2011 www.zdravarus.ru jezkazgan viloyatini «Jenis» savxozida xar yuz ona biyadan 84-86 tadan kulun olingan. Bu xujalik juda sovuk va kishi kam korli joyda tashkil topgan, Pavlador viloyatining Satpaeva savxozida esa 80-90 boshdan kulun olinmokda. Kozogistonning kupgina yilkichilik fermalarida 700 boshgacha uyur xolatiga saklanmokda.

Internet 10.09.2011 www.zdravarus.ru qorabayir zoti juda chidamli uzoq masofalarga chopishda yaxshi natijalarga erishgan Koenm nomli aygir 7000 m masofani 9 mln 11,2% bosib utgan.

Bu zot yaylov sharoitiga xamda otxona yaylov sharoitlariga yaxshi moslashgan. Verten tuzilishi kurik, muskullari yaxshi rivojlangan, yakin masofalarga chopishda boshka tiplarga nisbattan chakkon.

Xolmirzaev D, Boshmonov S. kuzatishicha (2012) hozirgi kunda ham qorabayir ot zotining 3 ta tipi mavjud:

1. Asosiy salt minilib, engil yuk tortuvchi
2. Salt miiniluvchi
3. Qalin (yirik) tipli.

Bu tiplarni saqlab qolish eng asosiy ishlardan biri bo'lishi kerak. Xolmirzaev D. ning (2013) ma'lumoti bo'yicha yaylovda asraladigan biyalarni qochirishni erkin xolda emas, uyur holda tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu usulda ayg'irni berkitish, birga o'tlatib yurish, uni boshqarish, kishilar yordamisiz uni otalanishi tushuniladi.

Xulosa qilib aytganda yaylovda boqiladigan naslli otlarni qochirishning eng ijobiy usuli uyur usulidir. Qulun olishning eng yaxshi oyi aprel oyi hisoblanadi. Bu vaqtda kech tug'ilgan qulunlardan ustun turadi.

Internet 10.09.2011 www.zdravarus.ru Korabayir zoti juda chidamli uzok masofalarga chopishda yaxshi natijalarga erishgan Koenm nomli aygir 7000 m masofani 9 mln 11,2% bosib utgan.

Bu zot yaylov sharoitiga xamda otxona yaylov sharoitlariga yaxshi moslashgan. Verten tuzilishi kurik, muskullari yaxshi rivojlangan, yaqin masofalarga chopishda boshka tiplarga nisbattan chakkon.

Xolmirzaev D. (2014) yozishicha otlarni bosh sonini ko'paytirish va sog'lom, sifatli qulun olishning eng asosiy omillaridan biri. Naslli ayg'ir va biyalarni zooveterinariya qoidalari asosida oziqlantirish, saqlash va juftlashni to'g'ri tashkil qilishdir. Spermatozoidlarni aktivligi, quyuqligi, rangi, hidi hamda spermada yiring, qon va boshqa aralashmalar e'tiborga olinishi, yilqichilik samaradorligini oshirishda asosiy ko'rsatkichlardan biridir.

II.TANLANGAN MAVZU BO‘YICHA MUAMMOLARNING QO‘YILISHI, QO‘LLANILADIGAN USLUBIYATLARI

Sport xalqni ulug‘lovchi mamlakatlarni birlashtiruvchi, qalbimizda oriyat uyg‘otuvchi muqaddasdir. Yoshlarimizni sog‘lom, har tomonlama barkamol tayyorlashd hozir ham , kelajakda ham sog‘lom, zabardast har tomonlama etuk o‘g‘il-qizlar kerak. Qadim zamonlarda ham avlod ajdodlarimiz farzandning har tomonlama kamol toptirishga katta e‘tibor qaratilgan. Misol uchun bolani yoshlikdan ot minib chavondoz qilishgan, ularni musobaqalarda qatnashtirib oriyatli, zabardast, qo‘rqmas, chaqqon bo‘lib g‘olib bo‘lishga o‘rgatishgan. SHu bois eng avvalo otlarni mashq qildirish va sinash turlarini va uning qoidalarini bilish qo‘yiladagan muammolarni va ularni bajarishda qo‘yilgan maqsad asosiy mezon hisoblanadi. Otlarni mashq qildirish va sinash tartibini bilishi kerak. Otlarni mashq qildirish va sinash tartibini ilmiy asosda tahlil qilish orqali mavzuda muammolarni qo‘yilishi va uni ajarish uslubiylarini bilish eng muhim ishlardan biri hisoblanadi:

1. Otlarni mashq qildirish va sinash tartibini o‘rganish
2. Otlarni mashq qildirish va sinashning ahamiyatini o‘rganish
3. Otlarni mashq qildirish va sinashda texnika xavsizligini o‘rganish
4. Salt miniladigan otlarni mashq qildirish va sinash
5. Salt miniluvchi otlarni otchoparda sinash
6. Uzun tizgin yordamida bog‘lab otlarni mashq qildirish
7. Salt miniluvchisof qonli Angliya ot zotiga tavsif
8. Arab ot zotiga tavsif
9. Axaltakaot zotiga tavsif
10. Salt miniluvchi ot zotlarinig tana o‘lchamlari bo‘yicha tavsif
11. Salt miniluvchi ot zotlarinig GIT bo‘yicha rekord chaqqonligi, mavzuga qo‘yilgan muammolarni bajarish uslubiylarlari.

III. ASOSIY QISM

3.1. Tanlangan mavzuni yechimi va yoritilishi

Tanlangan mavzuni echimini yoritish uchun mavzudagi muammolarni qo'yilishi asosida amalga oshirildi. SHu bois qisqacha tavsifni sport otlardan boshladik. mavzuni echimi va yoritilishini o'rganishda, qisqacha tavsifni otlarni mashq qildirish va sinash mavzusi asosida eng avvalo otlarni mashq qildirish va sinash tartibi asosida tavsifdan o'rgandik.

Otlarni mashq qildirish va sinab ko'rish inson tafak-kurining va mehnatining mahsuli sifatida qadim zamonlarda paydo bo'lgan bo'lib, 3 sistemaga ya'ni tartibga bo'linadi: sharqona, qadimiy va XVIII asrda Angliyada sof qonli miniladigan asosiy otlar zotini yaratilishi bilan bog'liq bo'lib – **antiqa** tartibdir.

Mashq qildirishning sharqona tartibi. O'zida otga bo'lgan munosabat va uni turli hil musobaqalarga tayyorlashdagi xalq donshmandligining ko'pgina qiymatli tomonlarini olgan. Biroq bu tartibda eskirib qolgan usulidir.

Qadimiy tartibi o'zida ko'proq xarbiy otlarni mashq qildirish usullarini qamrab olgan. Xozirgi davrdagi antiqa tartib yuqoridagi ikki tartibga asoslangan bo'lib, asrlar Osha takomillashib borgan bo'lib, otlarni hozirgi tezkor zootexniya tomonidan sinashlarga tayyorlashga qaratilgan. Bu usul otlarni iloji boricha ishchanligini aniqlash va ularni ustirishdagi laboratoriya sifatida maxsus tayyorlangan ot choparlarda o'tkaziladi, otchoparni o'z ishchilari poygachi otlar uchun turlicha uzunlikdagi (1600 dan 3000 metrgacha) parallelopiped shaklidagi belgilari bo'lgan yo'lakchalari bo'ladi. Yo'lakchalarni tuprog'i yumshoq, otlar xarakat qilishi uchun yaxshi bo'lishi kerak. Ba'zi joylarda otlar chopishi engil bo'lishi uchun o'tlar bilan qoplangan yashil yo'lakchalar tayyorlanadi. Yo'lakchalar tekis va toza bo'lishi kerak. Xar bir doiraning yo'lakchalari metrilar hisobida aniq o'lchanib ustundan belgilar qo'yiladi. Bu yo'lakchalarda mashqlar va otlarni teqis, to'siqlar osha poychalarda va *STIPL-CHEZ* usulida (3-7 km keladigan aylanma to'siqlardan o'tish) sinab ko'riladi.

Undan biroz uzoqda otlar xonasi joylashadi va uni yonida esa otlarni erkin

sayr qilib yurishi uchun maysazor maydon bo‘ladi (maysazor maydonda qurugan o‘tlar bo‘ladi va u utlar bilan otlar oziqlantiriladi.) (Bunday maydon otxona yonida yoki undan uzoqroq joyda bo‘lishi kerak).

Otlarni sinash hamkorlik mamlakatlarida soat millari yo‘nalishiga qarshi olib boriladi va bu usul «xaqiqiy» tomoni deb xisoblanadi, chet ellarda esa ikki tomonida, ya’ni «ters tomon» deb hisoblanib soat yurishi bo‘yicha olib boriladi.

Tomosha qiladigan qismi marra to‘g‘risida, xakamlar joyi esa marraga qarshi tomonda joylashadi. Eng yaxshi otchoparlar butun doira bo‘lib fotomarra va telekuzatishlar bilan jihozlangan bo‘lishi kerak.

Start berish start beruvchi nazoratchi – start beruvchi yorda-mida va start turi yoki start beruvchi mashina bilan olib boriladi.

Nasldor toychalar 2 yoshidan 6 yoshgacha sinab ko‘riladi. CHopish masofasi otlarni yoshiga bog‘liq ravishda 1000 metrdan 7000 metr oralig‘ida bo‘ladi.

Uzoqroq masofalarga va stil-chez usulida yugurishlar ravon ko‘chalarda o‘tkaziladi. CHavandoz egar bilan og‘irligi ot jinsi va yoshiga bog‘liq ravishda 53 dan 64 kg gacha me‘yorlanadi.

Sport musobaqalari yirik otlar ishtirokida maxsus maydonlar- otlar mashq qiladigan maydonlarda o‘tkaziladi.

Musobaqadagi va sinab ko‘rishdagi natijalar naslchilik ishlarida yuqori baholanadi. Musobaqadan sinab ko‘rishdan avval yosh otlar o‘ziga xos tayyorgarlik mashqlarini o‘taydilar.

Xozirda otlarni mashq qildirishda qo‘llaniladigan tartibda qator qarama-qarshiliklar mavjud bo‘lib, ilm-fan va texnika rivojlangan sharoitda isloh talab bo‘lish turibdi. Mavjud tartib qachonlardir qabo‘l qilingan ish usullarini, oziqlantirishni va boqishni rasmiy holatga amal qilishni talab qiladida xozirgi zamon biologik yo‘lidan rivojlanishga imkon bermaydi.

Ko‘pdan-ko‘p trenerlarning amaliy ishlarida u notabiiy shaklga aylanib ketadi va shuning uchun ham ot sportini maqtaydiganlar o‘rtasida sport yo‘nalishidagi otlarga mashq qildirish va sinab ko‘rishlar zararlidir degan fikrlar yurishiga sabab bo‘ladi. Biroq, naslchilik mashqlar va sinab ko‘rishlar eng yaxshi ot zotlarini va

sportchi otlarni berganligini unutmaslik kerak.

Amaliyotdagi otlarni mashq qildirishni kamchiliklaridan biri ularni nazariya bilan aloqasi bo'lmayb ishlarni bir hilda olib borishda, bir tomonlama oziqlantirishda va otlarni ko'pincha otxonalarda ko'proq ushlab turishdadir.

Bunday qilishlar tabiatdan yuqori sifatli ko'pgina otlar bir tomonlama parvarishlarni va boqishni ko'tara olmaydilar mashqlardan o'rtacha ot singari, ba'zida mayib holda chiqib ketdilar.

Oziqaviy ratsionlarda haddan tashqari don oziqlarni ko'prok bo'lishi, bir tomonlama oziqlantirish hazm qilish a'zolarini ishini qiyinlashtiradi, modda almashinuvi buziladi va turlicha qiliqlarni keltirib chiqaradi va oqibatda yosh otlarni yuqori darajada ishchan va yaxshi rivojlangan bo'lishiga erishish qiyin bo'ladi.

Yosh otlarni qat'iy ravishda otxonalarda parvarishlashda ular tabiiy mavjudligidagi ikki asosiy omildir: o'z to'dasidan va sayr qilishi, toza havo olishdan ajralib qoladilar.

Ishlar yaxshi yo'lga qo'yilganda bir kecha-kunduzda otlar bir soat davomida mashq qildiriladilar va kechqurun shuncha vaqt davomida chavandoz minib yuradigan 23 soat otxona og'ilida turadi. Bunday holda bog'lovchi paylarini chiniqishi, muskullarni baquvvatlashuvi, qon almashinuvi pasayadi va otlarni tashqi muhit toza havosidan, quyosh nuridan mahrum etadi va umumiy modda almashinuvi susayadi.

Otlarni o'z to'dasidan va tabiiy ta'sir etuvchi tashqi muhitdan ajratib qo'yilganda ular hujumkor bo'lib qoladilar, to'g'rirog'i tushunish qobiliyatini yo'qotadilar, fe'li buziladi, tabiiy holati o'zgaradi va me'yordan ortiqroq ta'sirchan va qo'rqadigan bo'lib qoladilar. Birdaniga otlarni sinashda xozirda mavjud bo'lgan start berishni ham taxlil qilish kerak deb hisoblash kerak.

Start – otlarni sinashdagi muhim omil hisoblanib, birdaniga xarakatni boshlanishidir. Birok sekin xarakatdan so'ng to'satdan tez xarakatni boshlanishi ot asabiga salbiy ta'sir etadi.

Fiziologik nuqtai nazardan qaraganda start beruvchi va nazoratchi startchi

ishtirokida ochik start berish birmuncha qo'llasa bo'ladigan usuldir. Bunday holda ot asta-sekin tezlikni oshirib kerakli vaqtda tayyorgarlikka ulguradi.

Lekin bunday start berishni qo'llash chavandozlarda kamdan-kam bo'ladigan intizomni va start beruvchilarni begarazligini talab etadi. Bunday holatlardagi ruhsatdan oldinroq start olishdir (falstart) otlarni yanada asabiylashtiradi. U shoshib yuradigan chavandozlarni start chizig'idagi ustun tomon yurishdan etarlicha ogohlantira olmaydi va turdan ma'lum masofada turgan intizomli chavandozlarga esa start olish uchun qoidadagidek sharoit yaratadi.

Start beruvchi mashina chavandozlarni majburan intizomli qiladi va startni qoidadagidek bo'lishiga yordam beradi. Birok ot yuruvchi maydonda xonalarni birdaniga ochilishi va to'satdan joyidan chopish otlarni oliy asab markazlarida xayajonlanishga olib keladi. Shuning uchun ham start beruvchi mashina otlarga zararlidir.

Barcha tirik hatto qarindoshroq bo'lganlarni ham tanasi ko'pgina belgilari bilan farq qiladi. Bunday jarayon otlarga ham tegishlidir. Shuning uchun ham har bir otga har tomonlama alohida-alohida yondashish yo'llarini izlanish biologik tomondan asoslangan, otlarni parvarishlash, mashq qildirish va sinashda samarali o'zgarishlar kerakligini talab etmokda. Bunday ijobiy muhim ish, ijobiy hal etilganda san'atga aylanadi.

3.2. Otlarni mashq qildirish va sinashning ahamiyatini o'rganish.

Otlarni mashq qildirish (*trening*, ingliz so'zidan olingan) deb shu tushuniladiki, otlarni har xil yurish usul (allyur) doimiy jadallik bilan davom etkazish tayyorlashga; sinash deganda eng yuqori bor kuch bilan ishni bajarish orqali sinab irsiyatlarni nasldan-naslga o'tishni, ichki sifatlarni o'zaro bog'liqligida ot zotlarini takomillashuvida naslchilik ishining muhimligi tushuniladi. Ba'zi mashqlar tezligini oshirishga, to'siqlardan o'tishga, ish qobiliyatini oshirishga, boshqalari mushaklarini rivojlanishiga, yurak-qon tomirlar sistemasini, nafas olish organlarini yaxshilaydi.

Otchoparlarda sinab ko'rilganda o'ziga xos harakatga soluvchi reflekslar

ishlab chiqariladi. Ot ish va sport hayvoni bo'lganligidan ulardan olingan naslning ishga yaroqlilik darajasi katta ahamiyatga ega. Otlarning ishga yaroqliligi esa otchoparlarda poygada chopishi, xar xil musobaqalarda qatnashishi va yuk tortishiga qarab baholanadi.

Otlarni sinovga tayyorlashdan oldin ular tegishli mashq qildirib chiniqtirish davridan o'tishi kerak. Chiniqtirishga yosh otlar ko'proq moyil bo'ladi, chunki ularning organizmi yosh bo'lganligidan bajarilishi kerak bo'lgan metodik rejim va funksional gimnastikalar yaxshi samara beradi.

Otni mashq qildirish deganda otlarni maksimal talablar bilan har xil yurish usullari va davomiylikda choptirish, ya'ni sovutish tushuniladi. Sinash natijasida esa hayvonning irsiy sifatlari ayon bo'ladi, bu esa o'z navbatida otlar zotini yaxshilashga aratiladigan naslchilik ishlarida katta ahamiyat kasb etadi. Otchopar sharoitida otlarni chiniqtirish jarayonida ularga har xil mashqlar bajartiriladi. Bunda chopish suratini oshirib borish (tezligini oshirish) muskullarini kuchaytirish bilan bog'liq bo'lgan mashqlar amalga oshiriladi. Doimiy mashq qildirishdan maqsad – otlarning chidamliligini oshirish, muskul va paylarini mustahkamlash, yurak – qon tomirlar va nafas olish yo'llarini rivojlantirishdan iborat.

Otchopar sharoitida otlarni mashq qildirish va sinovdan o'tkazish ishlari u yoki bu zotlarni etishtirish maqsadlariga qarab amalga oshiriladi. Masalan, sof qonli va boshqa otlarni mashq qildirish va sinovdan o'tkazish ularni sakrab chopishlarida tezligini oshirishga, yo'rtoqi otlarni yaxshi va bir me'yorda harakat qilishiga, chaqqonligi va bardoshligini, og'ir yuk tortadigan otlarning kuchini oshirishga yordam beradi.

Otlarni otchopar sharoitida mashq qildirish va sinovdan o'tkazish naslchilik ishlarining bir qismi bo'lib, bunda hayvonlarning ishlash imkoniyatlarni tashqi ko'rinishi, gavda tuzilishini ob'ektiv baholash, shuningdek, ularning eng yaxshilarini naslchilikda foydalanish uchun tanlab olish imkonini beradi. Masalan: otlarning chaqqonligi ot gavidasining tuzilishi, bardoshliligini va nasllik qiymatiga bog'liq bo'ladi. Chaqqonlik jihatdan rekordchi hayvonlar, odatda yaxshi ayg'irlik

ham qila oladi, rivojlanish liniyalarini boshlovchisi, oila asoschisi ham bo'la oladi va o'zidan so'ng yuqori sifatli avlod qoldiradi. SHuning uchun ham yuqori darajadagi ishchan (chaqqon) otlar har doim yuksak baholanadi.

Otchilik zavodlari va otchopar sinovlarining rivojlanishiga qarab saltbop va yo'rtoqi otlarni mashq qildirishning asosiy prinsiplari belgilanadi. Ilgari bu ishlar trener bilan chavandozning xohishiga ko'ra amalga oshirilar edi. Zootexniya, veterinariya va fiziologiya fanlarining rivojlanishi natijasida otlarni mashq qildirish toboro sotsial kuzatuvlar predmetiga aylanib bormoqda. Otlarni mashq qildirish va sinovdan o'tkazish ishlariga mustaqil davlatlarida olimlaridan Krestovnikov A.N, Yakovlev A.A, Sulun A.S, Vosnoyan R.M.,Jeligovskiy O.A va boshqalar katta hissa qo'shdilar.Salt miniladigan, yo'rtoqi va og'ir yuk tortuvchi otlarni mashq qildirish ikkita davrda amalga oshiriladi.

3.3. Otlarni mashq qildirish va sinashda texnika xavfsizligini o'rganish.

Hamma xo'jaliklarda, ot zavodlarida, otchoparlarda, ot sport klublarida otlar otboqarlarga berkitiladi. Otlarning holatiga javob beradigan shaxs hisoblanadi. Naslli ayg'irlarga qaraydigan kishilarning yoshi 18 yosh, qolgan jinsdagi otlarga qaraydigan o'smirlar yoshi 16 yoshga etgan bo'lib, tibbiyot ko'rigidan o'tgan bo'lishi kerak. Ot bilan muomala qilishda xushmuomala bo'lish kerak. Otlarga yaqinlashishdan oldin, to'satdan hurkitib yubormaslik uchun sekinlik bilan tovush chiqariladi. Otni dennikda turgan paytda burishga majbur etish yaramaydi, stanokdan chiqariladigan bo'lsa orqasiga tisarmoq lozim. Otxonaga kirganda qattiq baqirish yaramaydi, stanok va denniklarda turganda birdan burish yaramaydi. Otlarni sport ishlarida (klassik) va (milliy) o'yinlarda mashq qildirishda va sinashda har bir otga qarovchi otboqar, brigadir, sport otini fe'l-atvori to'g'risida, shu otga muomala qiluvchi kishilarga to'liq tushintirish ishlarini olib borish harakat qilish osonroq bo'ladi. Agar u oldinga kuchli tortib ketmasa, uzangi imkon beradi. Chopayotgan paytda tuyoqlardan uchib chiqqan loy yoki tuproqdan uzunroq bo'lishi mumkin. Bunday holat butun gavdasi bilan oldingi intilishiga

yoki qumdan qoʻrqadigan otlarga niqob tutiladi. Otlar bilan ishlashda qamchidan qanday foydalanish kerakligi bilan ham tanishish, oʻrganish kerak. Bunda qaysi qoʻl bilan qamchidan foydalanilganda otga qanday taʼsir etishini, marraga qancha masofa qolganda tezliligi oshirish kerakligini bilib olish kerak. Amalda qamchi bilan chap qoʻlda ushlash foydalibroq, jilovni esa oʻng qoʻl bilan ushlash kerakligi tasdiqlangan. Toza zotli otlar orasida oʻziga xos otlar uchraydiki, ular boʻyni bilan aʼlo darajada harakat qiladilar va u otni osongina choptirishga yordam beradi. Epchil va ixcham boʻlmagan, boʻyni bilan yaxshi ishlamaydigan boʻyinli otlarni yaxshisi aylanma jilov va qamchidan foydalanib ishlatilganda yaxshi.

Boʻyni etarlicha chiqmagan va boʻyin harakati chegarlangan otlarga «xavoy» yaʼni balandroqdan turib jilov va qamchi yordamida yugurishni qoʻllash mumkin. Toʻsiqlardan oshish uchun chavandoz va otga mashq vaqtida qurqmaslik va ishonchlilikni rivojlantirib borish kerak, chavandozda bu xususiyatlar boʻlmasligi otga taʼsir qiladi va u toʻsiqlardan qoʻrqa boshlaydi. Toʻsiqlardan oʻtish oldidan otlarni maqtash, yaʼni qurkmasligi uchun lab bilan yoki yoqimli ovoz chiqarish yoki sakrashdan biroz oldin biqiniga yumshoqqina niktab «op» soʻzi bilan buyruq berish va sakragandan soʻng silash kerak. Otdan otxona oldida engilgina yoki suvoriylarga oʻzangidan tushish kerak.

3.4.Salt miniladigan otlarni mashq qildirish, sinash va xillari.

Otchoparda salt otlarni mashq qildirishning negizida maʼlum masofalarga, belgilangan vaqt davomida kadamlash, yoʻrtish, maʼlum vaqtda maʼlum masofaga chopish kabi harakat mashqlarini bajaradi.

Ikki yashar otlarning mashqlari undan katta yoshlardagi otlarnikiga qaraganda ancha jadal bajariladi. Bu mashqlarni oʻtkazishdan maqsad otlarni tobora murakkablashib boradigan sinashga va ancha yuqori darajada ishchanlik koʻrsatishlariga tayyorlashdan iboratdir. Buning uchun mashq oʻtkazishning mavjud usullarini takomillashtirilish hamda salt miniladigan otlarni sinashga ancha muvoffaqiyatli tayyorlash imkonini beradigan yangi mashq qoidalari ishlab chiqilishi kerak. Otlar otchoparga keltirilgan dastlabki kunlarda faqat qadamlatib

yurgiziladi. Keyinchalik ular otchopar sharoitiga kuniqishganidan so'ng turli usulda lukillatib choptirishlar, turli masofaga poyga masofaga o'rgatiladi. Lukillatib choptirish odatda bir haftada bir marta amalga oshiriladi.

Nomli va an'anaviy sovrinlar har yili belgilangan muddatlarda o'ynaladi. Musobakalarga chopish tezligi yuqori bo'lgan otlar kuyiladi.

Otchopar sharoitida sinash xillari. Turli – zot (yo'rtoqi, salt miniladigan, og'ir yuk tortuvchi) otlar uchun har xil sinovlar o'tkaziladi. Salt miniladigan otlar poygada va to'siqlardan o'tishda sinaladi. Otlarning yoshi har xil bo'lganligidan ular yoshiga qarab alohida-alohida sinovlardan o'tkaziladi.

Chopish masofasi: ikki yoshli otlar uchun – 1000, 1200, 1400 va 1600m; uch yoshlilar uchun – 1200, 1400, 1500, 1600, 1800, 2000, 2400, 2800 va 3000 m; turt yoshli va undan yuqorilar uchun – 1200, 1500, 1600, 1800, 2400, 2800, 4000 m ni tashkil etishi kerak. Olti yoshda bo'lgan salt miniladigan yarim qonli otlarni yanada uzoqroq masofaga choptirib sinash mumkin.

To'siqli joylarda uch yoshli va undan ortiq otlar kuyiladi. Salt miniladigan otlarni sinovdan o'tkazishda chavondozning vazni ham katta ahamiyatga ega; ikki yashar otlar uchun chavandoz bilan egarning vazni 57 kg dan, uch yasharlari uchun 59 kg, turt va undan katta yoshdagilar uchun 60 kg (biyalar uchun bu yuk 2 kgga kam bo'lishi kerak) dan oshmasligi kerak.

Salt miniladigan otlar poyga va to'siq joydan tashqari stipilchez (sun'iy va tabiiy to'siqlardan o'tish poygasi) o'yini va 3000-7000 m gacha poyga musobakalarida xam sinovdan o'tkaziladi. Stipilchez musobakasiga besh yoshdan oshgan otlar kuyiladi. Ayrim joylarda chala zotli otlarni sutkasiga va bir necha kun davomida 50-100 km masofaga choptirish kifoya qiladi.

Yo'rtoqi otlar yoshiga qarab maxsus ikki g'ildirakli yengil aravalarga qo'shib har xil masofaga mashq qildiriladi. Aravakash bilan tachankaning vazni limitlanmaydi. Ikki yashar otlar 1600 m masofaga (bir tomonga) uch yashar otlar 1600 m masofaning har ikkala tomoniga, to'rt yoshdan oshganlari 1600 m masofaning ikki va uch tomoniga, 2400 va 3000 metr masofaga choptirilgan holda sinaladi. Bundan tashqari, yo'rtoqi otlarni kachilkada, yuzni manzilga etkazish

tezligiga, egarlanganda lukillab choptirib sinash ham mumkin, bu musobaqalarga uch-to'rt va undan ortiq yoshdagi otlar qo'yiladi. Odatda beshta-oltita va undan ko'proq otlar guruhlariga ajratilgan holda sinovdan o'tkaziladi. Uch otli izvoshni sinash uchun otlarning hamma zotlari, istagan jinsdagilari qo'yilishi mumkin, lekin bunda o'rtacha qo'yilgan ot to'rt yoshardan, ikki yoniga qo'shilganlari esa uch yoshdan kichik bo'lmasligi kerak. Qishda chana 1600, 2400, 3000 metr masofaga choptiriladi. O'rtadagi ot yo'rtib, chapdagilari yugurib chopishlari kerak.

Otchopar sharoitidagi sinovdan otlarning ahvoli doimiy ravishda har xil nazorat ostida bo'lib turishi shart. Masalan, fiziologik jihatdan nazorat qilish, otlarning qanchalik mashq qildirganligini, ularni asrash, oziqlanish, mashq qildirish va sinashning maqbul rejimlarini aniqlash imkonini beradi. Zootexnika nazorati otning rivojlanishi va umumiy ahvolini, semizligini, tashqi ko'rinishini, xulqini, oziqlanish darajasini kuzatib borish hamda ishlash xususiyatlarini takomillashtirish masalalarini o'z ichiga oladi.

Bulardan tashqari, veterinariya nazorati ham olib boriladi. Bunda ot organizmining funksional faoliyatidagi chekinishlar o'z vaqtida aniqlanib, profilaktik va davolash tadbirlari amalga oshiriladi. Yuqumli kasalliklar va shikastlanish alomatlarining oldini olishga alohida e'tibor beriladi. Zootexnik va veterinariya nazoratlari bir-biriga bog'langan holda amalga oshiriladi.

Har bir otchoparda otlarni sinash uchun sud kollegiyasi tashkil etiladi. Kollegiya sostaviga bosh sudya, sekretar, ikkita sudya, otchopar ishlab chiqarish bo'limining vakili va starter kiradi. Otlarni sinovdan o'tkazishda sud kollegiyasining ixtiyorida zarur xizmat kursatuvchi xodimlar bo'ladi. Ular otlarni sinovdan o'tkazishda belgilangan qoidaga muvofiq ish olib borishadi.

Otchoparda barcha sinov natijalari qat'iyan hisobga olib boriladi. Bunda har kungi sinov haqidagi sud kollegiyasi tomonidan to'zilgan protokol asosiy hujjat hisoblanadi. Protokolda havo sharoiti, yo'lning holati, har bir musobaka va poyganing tafsiloti, egallangan o'rni, otning musobaqadan chetlatilish sabablari va boshqa omillar yozilgan bo'ladi. Har qaysi ot uchun sinov natijasi yoziladigan ikki

nusxada individual hisob varakasi to'zilib, bittasi otning egasiga yuboriladi, ikkinchisi esa otchoparning arxivida saqlanadi.

3.5. Salt miniluvchi otlarni otchoparda sinash.

Salt miniluvchi otlarni otchoparda mashq qildirishning yo'rtoqi otlarni mashq qildirishdan birdan-bir farqi ularni xo'jaliklardan shu otlarni minib kelgan o'rgatuvchilar, otboqarlar mashq qildiradilar va sinaydi. Chunki bu o'rgatuvchi va otboqarlar o'z otlarining fe'lini yaxshi biladilar. O'rgatuvchilar otchoparning sinash rejasiga asosan o'z qo'l ostidagi otlarni tayyorlash va sinash uchun alohida reja tuzib oladilar.

Salt miniluvchi otlarni poygada sinashga tayyorlangan kishining shaxsan o'zini minib chopishi, sinash kuni ertalab otni faqat etaklashi, musobakaga 2-3 soat vaqt qolganda 900-1000 g konsentrat ozuqa va yarim chelak suv berishi kerak. Otlarga musobaqa boshlanishiga 30 min qolganda egar va yugan uriladi. Chavandoz egar ustiga o'tirgach, o'rgatuvchi ayilni maxkam tortilgan-tortilmaganligini yana bir marta tekshirib ko'radi. Sudyaning uchinchi qo'ng'irog'idan so'ng, chavandoz otni 300-400 m masofaga tez choptirib musobaqaga tayyorlaydi.

Ikki yoshli otlarni sinashda qamchilash yoki tuqimlash mumkin emas. Otning tezligi chopish aylanasi hammasi qismlarida deyarli bir xil bo'lishi kerak. Agar tezlik bir me'yorda bo'lmasa, ot finishga kechiqib kelishi mumkin. Chunki bunda ot o'z kuchini har xil sarflaydi va tez charchaydi. Shuning uchun chopish masofasini to'g'ri hisobga olish, otning qobiliyatini to'g'ri hisobga olish, otning qobiliyatini yaxshi o'rganish va uni turli qismlarda to'g'ri taqsimlash chavandozning mahoratiga bog'liq. Ot finishga etib kelgandan so'ng boshqa otlar singari sovitiladi.

Ikki yoshli ayg'irlarni sinashda chavandozning og'irligi egar bilan birgalikda 57 kg, 3 yoshlida 58 kg, katta yoshli otlar 59 kg, biyalarni sinashda esa ayg'irlarga qaraganda chavandozning og'irligi 2 kg kam bo'lishi kerak.

3.6. Uzun tizgin yordamida bog‘lab, otlarni mashq qildirish.

Ot sporti amaliyotlari shuni ko‘rsatadiki otlarni uzun tizginda ushlagan holda aylantirib mashq qildirish ularni jismoniy jihatdan yaxshi tayyorlashga va maxsus murakkab mashqlarni bajarishlari uchun kerakli bo‘lgan dastlabki tayyorgarlikdan o‘tishlari uchun eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Otlar uzun tizginda ushlab turgan holda aylantirib mashq qildirish ya’ni aylana bo‘ylab harakatlantirish ulardan insonga nisbattan ishonch hissini oshiradi, uning ovozigga o‘rganishi bilan bir vaqtda unga tushuna boshlaydi va berilgan barcha buyruqlarini darhol bajaradi, har xil harakatlarni tekis va bir maromda bajarishni o‘rganadi.

Bu usul ayniqsa har xil sabablarga ko‘ra (qarchig‘ay urilishi) minish mumkun bo‘lmagan otlarni mashq qildirishda juda qo‘l keladi. Bundan tashqari otlarni poyga oldindan agar ular juda ser harakat bo‘lib ularni bir joyda to‘xtatib turish va boshqarish qiyin bo‘lgan paytlarda ularni tinchlashtirishda, ularni va o‘zlarini erkin tutishga o‘rgatishga mashq qildiriladi. Ularda to‘siqlardan sakrash oldidan kuzatiladigan hayajonlanish va asablarning tajanglanish holatidan chiqarish va o‘zlarini erkin tutishga o‘rgatishda, yosh otlarda kuzatiladigan ortiqcha kuchni sarf qildirishda, hamda katta yoshdagi otlarda ularni boquvdan chiqargan paytda egarlab minishdan oldin ulardagi ortiqcha energiyani sarflashda juda qo‘l keladi.

Otlarni aylana bo‘ylab mashq qildirish faqat, yuqori malakali chavandozlarga topshiriladi. Mashq qildirish maxsus mashq qildiruvchi rahbarlar osti ma’lum individual (aloxida) reja asosida amalga oshiriladi avval oddiy usuldan boshlanib asta sekin murakkablashtirilib boriladi. Bu tajriba asosan yosh otlar uchun qo‘llaniladi juda hurkak va tez otlarni mashq qildirishda juda hushyorlik va xushmuomilalikni talab qiladi. Otlarning aylana bo‘ylab mashq qildirish har bir otning individual o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Juda hurkak va tez otlarni mashq qildirish juda hushyorlik va izchillikni iloji boricha xushmuomulakni talab qiladi. Aksincha juda yuvosh va sekin harakat qiladigan otlarni mashq qildirganda esa juda baland ovozda agar bu ham foyda

bermasa yanada jiddiyoq usullarni qo'llash yo'li bilan uni oldinga tezroq harakat qilishga majburlash lozim. Agar uning harakatlari mashq maboynida yana sekinlashsa unga maxsus qamchi bilan tezroq harakat qilishiga majburlash kerak. Tezligini oshirsa uni ortiqcha majburlashning hojati yo'q.

Bularning hammasi qisqa vaqt ichida ro'y berishi kerak. Otni o'ynatish uchun pishiq arqonli ip uzunligi 5 m qalinligi 5-6 sm bo'lgan bir uchiga charm qayshga o'rnatilga temir to'g'a zanglamaydigan metalldan bu to'g'a otning no'xtasiga berkitilib bog'lanadi. Ikkinchi uchi esa qo'lda ushlash uchun moslashtirilgan.

Uzun qamchi, darra, otlarni me'yorida bajarishda harakat tezligini oshirishda foydalaniladi. Uzun qamchi odatda dastali va uzun tasma qayishdan yoki yog'ochdan yasalgan bo'ladi. Uzunli 1.4-1.5 m gacha, bazi bir shaxsiy qamchilarni uzunligi 2.5 m gacha bo'ladi. Bu qamchilar otini mashq qildirishda jokey (ot o'rgatuvchi) chavandozlar keng foydalaniladi.

Otlarni oyog'iga kiydiriladigan moslama otlarni tuyoqlarini oyoqlarini to'siqlardan sakraganda shikastlanishdan saqlaydi.

O'ta og'ir to'siqli joylarda oldingi oyog'iga to'laligicha plastik pralon kiydiriladi. Shuningdek maxsus bintlarga paxtani o'rama qo'shib, oyog'iga bog'lanadi.

Bu moslamalarning to'g'ri o'rnatilganligi yana bir karra ko'zdan kechirilishi kerak.

Otlarni mashq qildirishni belgilashda asosan ikki kishi chavandoz va uning yordamchisi bo'lishi kerak. Yordamchi otini aylana bo'ylab kerakli yo'nalishda etaklaydi. Chavandoz esa arqonning uchidan ushlagan holda maydon markazida turadi. Arqonni qo'lga o'rash, bog'lab olish qat'iy man qilinadi. Mashq qildirishga chavandozning holati, maydonchani qoplamasi (qum, to'proq) va boshqa omillar muhim ahamiyatga ega.

Chavandoz otini mashq qildirishning dastlabki daqiqalarida maydon o'rtasida kichik radius bo'ylab otini boshini va harakatini nazorat qilib boradi. Otning harakatining tezlashishi bilan yordamchi aylana bo'ylab o'z harakatini davom ettirgan holda asta – sekin otini qo'yib yuboradi. Yordamchi otini qo'yib

yuborgandan keyin otga o'girilmagan holda aylana bo'ylab harakat qilib otan sekin uzoqlashadi va chetga chiqadi.

Agar ot kerakli jadallikda harakat qilmasa bu erda yordamchi uni qamchilab turuvchi vazifasini bajaradi, bunda agar ot aylana bo'ylab o'ng tomonga harakatlanayotgan bo'lsa qamchini chap qo'lga ushlaydi va aksincha chap tarafga harakatlanayotgan bo'lsa o'ng qo'lga olingan holda maydon markazidan otni tezroq harakat qilishga undaydi. Tajribali chavandozlar yordamsiz ham ishlay oladilar. Bunday chavandoz agar ot aylana bo'ylab o'ng qo'lga ushlagan holda agar chap tomonga harakat qilayotgan bo'lsa aksincha arqon chap qo'lga qamchini esa o'ng qo'lga ushlagan holda harakat qilinadi.

Qamchini shunday ushlash kerakki uning dastasini qalin uchi katta, borish tomoni chiqib turishi, yumshoq uchi esa chavandozdan bir oz orqaroqda yerga tegib turishi kerak. Qamchini shu holatda ushlaganda, otlar asosan yosh otlar unchalikda ko'rmaydilar. Otlar harakatlana boshlagandan keyin esa qolganining dastasini gorizontol holatga otgan tomon yo'naltirilgan holda ushlanib og'iz bo'shlig'idan til bilan ogohlantiruvchi ovoz chiqarish kerak otlarning harakatini tezlashtirishi uchun shuning o'zi kifoya qiladi. Agar bu tadbir yordam bermasa ya'ni ot bunga e'tibor bermasa qamchini dastasini uchi kichgina barmoq tomonga yumshoq qismi esa otning sakrashbshg'inidan bir oz balandiroqqa etadigan holda ushlanadi.

Avval otni bo'ysindirish uchun 4-4.5 m aylana bo'ylab harakat qildiriladi. Bunda ot orqa oyoqlari bilan tepib yuborishdan saqlaydi. Otlarni aylana bo'ylab mashq qildirishda avval ularni uch xil harakatni bajarishga: odimlab, yo'rtib va qo'sh oyoqlab chopishga bu harakatlarni bajarganda ot arqonni tortib ketmasligi ya'ni chavandozni tortib ketmasligi va tekis harakat qilishi kerak.

Otlarni mashq qildirishda yuqorida aytib o'tilgan omillarni hisobga olish kerak. Ayniqsa otlarni kavalettidan foydalangan holda juda intensiv mashq qildirishda (to'siqlardan sakrash va boshqa murakkab mashqlarni bajarishda).

Agar qum bilan qoplangan yog'och qirindisi bilan qoplangan yoki o'tloq bilan qoplangan maydonchalar mavjud bo'lsa bulardan eng yaxshisi birinchisi ikki

maydonga hisoblanadi. Bu maydonchalar yuqori namlikga ega bo'lgan holda otlar umuman toymaydi. Har safar otlarni mashq qildirishning tugashi bilan bu maydonchalarning sathi lopatka bilan tekislab chiqiladi va engil boronalarda yumshaladi.

Sport otlarini mashq qildirish uchun mo'ljallangan maxsus moslamalar va qurilmalar ichida kavaletti muhim o'rinni egallaydi. Bu yupqa yog'och taxtadan yasalgan maxsus moslama bo'lib to'rt burchak shaklida bo'ladi uzunligi 2-4 m gacha bo'lishi mumkin, ikkinchi turiga yog'ochdan yasalgan maxsus moslamalardan iborat.


Bu moslamalar yordamida otlarni mashq qildirish va o'tda yarim aylana yoki har xil harakatlarni bajarish uchun maxsus yo'laklarga yoki to'siqlarga barpo etiladi.

Otlarni kavaletti yordamida aylana bo'ylab mashq qildirganda asosan 3 ta yo'lakcha barpo etiladi ya'ni ichki, o'rtangi va sirtqi. Bunda ichki yo'lakcha kavalettisiz ishlash uchun o'rtangi yo'lakchanning kengligi 80 sm bo'lib, otlarni odimlab yurishini va sirtqi yo'lakcha kengligi 1.30 sm bo'lib otlarni yo'rtirib mashq qildirishda foydalaniladi. Otlarni mashq qildirishdan oldin chavandoz (master) otlarni ekstererini alohida xususiyatlarini mashq qildirish darajasini hisobga olgan holda kavalettilar yordamida yo'lakchalarning kengligini va radiusini belgilaydi va bu bilan otlarning harakat doirasini kengaytiradi yoki aksincha qisqartiradi. Otlarni ichki yo'lakcha bo'ylab 6-7 marotaba mashq qildirgandan so'ng ularni tashqi yo'lakchaga o'tkaziladi va yana 6-7 marotaba tashqi yo'lakcha mashq qildirgandan so'ng ya'ni ichki yo'lakchaga mashq qilgandan so'ng amalga oshiriladi. Otlarni o'z vaqtida buyruqlar asosida itoatkorlikka o'rgatish mashqni o'z vaqtida bajarishga olib keladi. Otlarni doimiy ravishda mashq qildirish butun organizmni yaxshi rivojlanishiga, tabiiy va sun'iy oddiy va murakkab mashqlarni to'g'ri bajarishga olib keladi. Chavondoz hech qachon mashq qildirish tartibini buzmasligi oddiy mashqlardan asta sekin murakkab mashqlarga o'tib borishi kerak bu esa vaqt o'tishi bilan chavandoz va ot o'rtasidagi munosabatlarning jipslashib borishiga olib keladi.


Otlarni mashq qildirish va sinash 1-rasmda berilgan.



1-rasm



Otlarni to'siqlardan sinash davri. 2-rasmda berilgan



Otlarni sinash davri

Sport otlarini tayyorlash va ularni takomillashtirish muommosi chavondoz va sportchilarning oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi va ular bu ishda doimiy izlanashda bo'lishlari kerak. Otlarni aylana to'siqlardan sakratish ularning to'siqlardan sakrashga diqqatini oshiradi va sakrash jarayonini yaxshilashga olib keladi. Ayniqsa to'siqlardan o'tish va uch kurash o'yinlariga yaxshi natijalarga erishadi.

3.7. O'rganiladigan salt miniluvchi zotlarga tavsif

Boshqa zotlardan shu bilan farq qiladiki, kvadrat to'zilishda ya'ni qarchig'ay balandligi gavdaning qiya o'zunligiga teng yoki undan 1-2% ko'proq.

Salt miniluvchi otlarning tirik vazni o'rtacha 400-500 kg, oyoqlari uzun ingichka, kaft aylanasi 18-19 sm (Arab va Axaltaka ot zotlari). Boshi katta emas, jag' oralig'lari keng, ensa suyagi uzun, bo'yi uzun, qarchig'ayi baland va uzun, orqa va beli tor, sag'risi uzun va kuchli, muskul va kuraklari uzun va qiya, baqayi uzun va qiya, tuyoqlari o'rtacha kattalikda mustahkam, terisi yupqa va kalta jun bilan qoplangan, konstitutsiyasi quruq zich.

Dunyo miqyosida 50 ga yaqin salt miniluvchi ot zotlari urchitilmoqda, eng

avvalo ixtisoslashgan salt miniluvchi zotlar O'rta Osiyoda yaratilgan, shulardan biri Axaltaka ot zotidir. Keyinchalik Yovmud ot zoti yaratildi. Ular G'arbiy Evropa feodalizm davridagi harbiy zamindorlar tabaqasida harbiy otliq askarlarni tashkil qilishda asosiy rol o'ynaydi, ular sof qonli salt miniluvchi Angliya otini yaratishda foydalanishdi. Yuqori qobiliyatchanlikka ega bo'lgan qanoatli, chidamli. Salt miniluvchi zotlar fuqarolar va ikkinchi jahon urushida qaysiki sobiq Sovet otliq askarlari matonati bilan jang qilish, dushmanlarni ustidan g'alaba qozonishda jasurlik ko'rsatdilar.

Hozirgi kunda salt miniluvchi ot zotlar ot sport o'yinlarining klassik o'yinlardan dunyo miqyosida o'ynalmoqda va urchitilmoqda. MDH.da ot zotlari boshqa mamlakatlarga eksport qilinib turilibdi. Ot sportining klassik milliy o'yinlarida muvaffaqiyat bilan foydalanib kelinmoqda.

3.8. Sof qonli salt miniladigan Angliya ot zotiga tavsif.

Angliya orollari – salt miniladigan sof qonli otlar vatanidir. Zot yaratish ishlari 1660-1685 yillardan boshlangan. Yuz yil (XVII asrning ikkinchi yarmi - XVIII asrning birinchi yarmi) mobaynida mahalliy salt miniluvchi otlarni Sharq (Arab, Varvar, Turkman, Turk) otlari, shuningdek Evropa (Ispan va Neopolitan) otlari bilan murakkab usulda urchitib chatishtirish usuli asosida bir tekis chopishga to'g'ri keladigan juda yaroqli salt miniladigan otlar yaratilgan.

Hozirgi barcha sof qonli otlarning paydo bo'lishi sharq respublikalaridan kelib chiqqan, (erkak liniyasi bo'yicha) uchta ayg'irga borib taqaladi. Bulardan biri «Veyerley-Tark» (1683 yil Vena qamal qilinganda o'lka sifatida turklardan olingan) arab oti bo'lishi mumkin, ikkinchisi – rivoj topayotgan (salt miniladigan) ot zavodi uchun 1710 yilda sotib olinib Angliyaga keltirilgan ko'pgina otlardan biri «Darley-Arabian» ayg'iri Markaziy Osiyodan kelib chiqqan, uchinchisi «Godolfin-Barb» varvar otlaridan bo'lsa kerak.

Zot yaratish dastlabki bosqichlarida aksari bir-biriga yaqin inbridinglar qo'llanilardi, lekin 1748 yili «metchem» ayg'iri («Godolfin-Barb» nevarasi), 1758 yili – «Xorod» («Veyerley-Tark» chevarasi) va 1764 yili – «Eklips» («Darley-

Arabian» evarasi)dek ajoyib poygabop otlar va nasl ayg'irlari olingandan keyin, ulardan ana shu uchta ajdod boshlari avlodini uyg'unlashtirishda foydalanildi. O'ta chopqir poygabop otlar etishtirishda yangi liniyalar krossi eng yaxshi natijalar berdi. Keyinchalik shunday juftlashtirishdan olingan avlodlar boshqa ot zotlari qonini aralashtirmagan holda urchitildi, bunda bir tekis chopishda yuksak natijalar ko'rsatgan otlar nasl olish uchun qat'iy ravishda tanlab borildi.

Zot yaratish ishlari qulay iqlim sharoitlarida olib borildi, ya'ni otlar deyarli yil bo'yi barra o'tlarda o'tlatildi, sistemali ravishda mashq qildirgan va chopqiron holda yaxshi sifatli ozuqalar bilan boqildi. Zootexnika ishlarini juda yuqori darajada olib borilishi zot yaratish muvaffaqiyatlarini belgilab berdi.

Angliyada 1731 yildan «Yo'rtoqi kalendari» chiqa boshladi. Unda respublikada o'tkazilgan barcha yo'rtoqi otlar sinoviga oid ma'lumotlar, har bir otning qimmati, uning kelib chiqishi, tug'ilgan joyi va ashyolari yoritib borildi. Poygabop otlarning chopish natijalarini ro'yxatga olish chopqirligi va u bilan bog'liq interer, eksterer sifatleri yuzasidan otlarni irsiy tanlashni sistemali ravishda olib borish imkonini berdi. Bu esa 1793 yil chorvachilik tarixida ilk bor ingliz salt miniluvchi otlari naslchilik kitobining birinchi jildni chop etish imkoniyatini yaratdi. Ana shu vaqtdan e'tiboran zot yaratilgani e'tirof etilib, uni yopiq naslchilik kitobi bo'yicha takomillashtiraverdi, shuning uchun ham ingliz otlari chopqirlik xislatlari jihatidan boshqalardan farq qilaverdi. Salt miniladigan sof qonli yirik, juda chaqqonligi, tez yetiladigan, mustahkam konstitutsiyali otlar azaldan (XVIII asrdan e'tiboran) jahonda shuhrat taratib keldi. Ot zotlari jahonning deyarli barcha respublikalariga Angliyadan yoyildi.

Salt miniladigan sof qonli otlarning sof zotligicha urchitishdan tashqari dunyoning turli respublikalarida Almor ot zotlarini chiqarishdi, jumladan, Germaniyada gannover, traken, gishtin, oldenberg; Daniyada frederiksberg; Fransiyada ingliz me'yornd, Vengriya, CHexoslovakiya va Yugoslaviyada nonius, nortstar, furiozo; AQSH da sharq-bolgar, ingliz-argentin; Amerika, salt miniluvchini yaratishda bu ot zotidan keng ko'lamda foydalanildi. Sof qonli ot zotlari Rossiyaga ilk bor o'tgan asr o'rtalarida keltirildi. 1834 yili Moskvada,

soʻngra esa boshqa shaharlarda tez chopadigan boqish jamiyatlari tashkil etildi. Bulardan nasldor otlar sinovdan oʻtkazildi. Ot choptirish natijalari yoritib berildi. Sof qonli otlarga oid zavod kitobining birinchi jildi 1836 yilda nashr etildi. 1886 yili Moskvada eng yaxshi uch yoshli yoʻrtoqi otlar – Boʻtun Rossiya gerbi uchun anʼanaviy sovrin taʼsis etiladi.

Rossiyada sof qonli salt miniladigan otlardan Orlov-Rostopchin va Strelets zotlari chiqarishda foydalanilganda. Eski Don oti, turkman, fors, qozoq, qorabayr va boshqa zotlar aynan shu zotlar vositasida yaxshilangandi. MDH.da – Budenniy, Kustanay, Kushum va Yangi qirgʻiz zotlarini chiqarishda ham shu zotlardan foydalanilgandi.

Sof qonli salt miniladigan zotlar yordamida Ukraina, ingliz-kabardin, tojik salt miniladigan guruhi yaratilgan. Salt miniluvchi otlar hosil qilishda gunter tipidagi aravaga qoʻshiladigan Latviya, Litva toriy zotlari bilan qisman yoʻrtoqililar bilan chatishtirishda foydalaniladi. Sof qonli saltbop otlarni Orlov yoʻrtoqi zoti bilan chatishtirishdan olingan duragaylar safarlarda ajoyib jangavor sifatlarini namoyon qildi, 1600 m masofaga chopishda «Fortunato» (2 min. 04,7 s.) kabi otlar esa aʼlo darajadagi chaqqonlik sifatlarini koʻrsatdi.

Hozirgi sof qonli salt miniladigan otlar – yirik, garmonik jussali boʻlib, pishiq konstitutsiyasi va yuqori darajadagi ishchanligi bilan ajralib turadi. Ot zavodlaridagi nasl aygʻirlarning oʻlchamlari (sm); qarchigʻaydagi balandlik 162,8; gavdasining qiya oʻzunligi 163; koʻkrak aylanasi 186,8; kaft aylanasi 20,26 sm.ni tashkil etadi. Biyalarining oʻlchamlari (shunga muvofiq ravishda) 161,5-160-182,5 19,5 sm ga boradi. Otlar malla, toʻriq, qoratoʻriq; kamdan-kam koʻk va qora tushlarda boʻladi. Dumi va oyoqlari serqil emas, popugi boʻlmaydi yoki kam rivojlangan boʻladi; dumi quyuq boʻlmay, sakrash boʻgʻimidan pastga kamdan-kam tushadi. Teri qoplami ingichka junlardan iborat boʻlib, qalin emas. Teri yupqa va elastik boʻlgani tufayli, uning ostidagi qon tomirlari turi yaqqol koʻrinib turadi. Ot boshining kichikroq, engilroq boʻlishi sof qonli saltbop otlar ekstereriga xos xususiyatlardan hisoblanadi. Koʻzlari katta-katta, jonli, quloqlari kichikroq, yupqa, harakatchan boʻladi. Boʻyni asosan uzun va uzaygan ensasi bilan birga choʻzilgan.

Qarchig'ayi uzun va baland bo'lib, boshqa barcha zotlarga qaraganda ko'zga yaxshi tashlanadi. Orqasi va beli o'rtacha cho'ziq, yaxshi mushaklashgan. Biyalarda yumshoq orqa ham uchraydi. Sag'risi o'zun, keng, muskulli bo'lib, odatda to'g'ri yoki sal-pal osilgan. Kuragi cho'ziq, qiyaroq joylashgan, elka va bilak suyagi o'zun, oyoqlarining paylari yaqqol ko'rinib turadi, tuyoqlari mustahkam. Muskulaturasi zich, relefli. Ko'krak qafasi keng, chuqur, yumaloq, qovurgali, juda hajmdor.

Boshqa zot otlarga qiyos qilganda sof qonli otlarda gaz-energetik almashinish juda intensiv darajada kechadi, organizmdagi qon ko'p hajmda aylanib turadi, eng katta yurak va o'pka ham shu xil zotli otlarda bo'ladi.

Hozirgi vaqtda bir tekis chopish jihatidan sof qonli saltbop otlarga teng keladigan ot zoti dunyoda yo'q. Quyidagi jahon rekordlari ma'lum: ikki yoshliklar uchun 1000 m –53,5 s, 1200 m –1 min. 07,2 s; uch yoshli otlar uchun 1609 m –1 min. 31,8 s («sekretariat») 2400 m –2 min. 22,6 s.

Respublikamizdagi sof qonli otlarning rekordlari jahon rekordlaridan birmuncha ortda qoladi: ikki yoshliklar uchun 1000 m –59,6 s. («Frauna»), 1200 m –1 min. 11 s. («Strateg»); 1600 m –1 min. 37 s.

Sof qonli salt miniluvchi zoti juda yuqori chaqqonlikka ega. Shuningdek yuqori naslli qiymatiga ega. Bu ot uzoq masofalarga chopish bo'yicha birinchi o'rinni egallaydi. Bu zot 1740 yildan boshlab butun dunyoga tanildi. Dunyo mamlakatlarining bu zotga bo'lgan talabi asta-sekinlik bilan oshib bordi. Angliya mamlakati qadimdan ot sportiga va ovga bo'lgan qiziqishi kuchli bo'lgan. Shunday qilib dunyo mamlakatlari ichida bu zotni tutgan o'rni beqiyosdir. Masalan, Kanadada tug'ilgan Nijinski ayg'irlarini 5 mln. 400 ming dollarga sotgan. 1973 yili Amerikada tug'ilgan Sekretariat otini 6 mln. 500 ming dollarga sotishgan. Shergar otini 18 mln. dollarga, Spektakulyar Bid degan otni 22 mln. ga, sakrab chopish bo'yicha Angliya va Irlandiyada chempion bo'lgan Shtrom Bird nomli otni 1981 yili 28 mln. dollarga sotgan. Zotga bo'lgan talab qadimdan kuchli bo'lgan. Rossiyada sof qonli salt miniluvchi Angliya zoti bo'yicha naslchilik ishi olib borilib 1836 -yili naslchilik kitobini birinchi tomi chiqarilgan. Bu kitobga 366 ta

biya va 287 ta ayg'ir kiritilgan. Fransiya shu zotni birinchi naslchilik kitobi 1838-yili, Avstraliya 1842- yili, Germaniya 1847 -yili, Amerika 1873-yili, Italiya 1880- yili yozib tasdiqlab chiqarilgan.

Bu zot dunyo bo'yicha sof holda urchitilmoqda. MDH.da ko'p ot zotlarini yaratishda ya'ni Budyonniy, Kustanay, Yangi qirg'iz, Kushum, Ukraina salt miniluvchilarni * tashkil qiladi. Bu zot asosan ot sportining klassik o'yinlarida, tekis va to'siqlardan o'tishda, stipl – chez o'yinlarida dunyo miqyosida o'ynalganda g'oliblik ko'rsatgichlariga erishgan.



4- rasm. Sof qonli salt miniluvchi zot.

3.8.1 Axaltaka zotiga tavsif.

Axaltaka otlarning tarixi eramizdan juda qadimgi asrlarga borib taqaladi. U eng qadimiy janubiy chopqir zot bo'lib, Xurosondagi qadimgi otlardan tortib, to bizning zamonamizgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi va uni turkman xalqi uch ming yil davomida sofligicha saqlab keldi.

Vohaning o'ziga xos dehqonchiligi turkman yilqichiligini beda va arpa armug'on etdi. Obdon to'yimli ozuq, cho'llarning issiq iqlimi, otxonada boqish

metodi, turkman yigiti – jangchining o‘z jangavor do‘sti – oti haqida kuni- tung‘amxo‘rlik qilishi ot zotining asosiy sifatlarini, ya‘ni konstitutsiyasining quruqligi, baland qarchig‘ayligi tashqi qiyofasining o‘ziga xos go‘zalligini baxsh etadi. Jangovor yurishlarining og‘ir sharoitlarini turkman otlarining chopqirligi va bardoshlilik rivojlanishiga yordam berdi.


Salt miniladigan sof qonli ot zotida turkman otlarining ham qoni bor. Darley-Arabian sharq nasl ayg‘irlarining uchtasidan biri bo‘lib, sof qonli saltbop zot yaratilishida asosiy rol o‘ynagan va hozirgi Axaltaka otlari bilan nihoyatda katta o‘xshashligi bor. Turkman zotini ajdodlaridan biri bo‘lmish «Turkman oti» tufayli Axaltaka oti Evropaning yarim qonli salt miniluvchi otlarida sezilarli iz qoldirgan. Turkman otlari respublikamiz yilqichiligiga ham juda katta ta‘sir ko‘rsatdi. Misol tariqasida Don, Orlov-rastopchin, Qorabax, Qorabayir, Adaev guruhi va boshqa ot zotlarini ko‘rsatish mumkin. Professor V.O.Vitt Axaltaka zoti ot zotlariga juda katta ta‘sir qilganini uqtirib, «bu jahonning barcha madaniy yilqichili yaratilishiga yordam bergan o‘sha bebaho qonning tomchilari edi», deb yozgan.

Turkman xalqi, muayyan maqsadga qaratilgan seleksiya ishlari natijasida cho‘l sharoitlarida, mashaqqatli harbiy yurishlar davomida tipi va ekstereri jihatidan boshqa zotlardagi otlar bilan aslo adashtirib bo‘lmaydi. SHuni komil ishonch bilan aytish mumkinki, ayniqsa agar aravaga qo‘shishga va minishga yaxshi o‘rgatilgan va uning ustida omilkor otliq o‘tirgan bo‘lsa, jahonda bundan ham samaraliroq ot topilmaydi.

Yuqoriga dadil ko‘tarilgan muskuli o‘zun bo‘yinga molik boshning engil, chayir bo‘lishi, harakatchan uzun quloqlar, o‘ziga xos Axaltakachasiga qaraydigan kesikli jonli sergak ko‘zlar, qarchig‘ayning baland uzunligi, kurakning nishabli joylashganligi, yaxshi muskulli sag‘ri, paylarining pishiqligi, oyoqlari mustahkam bo‘lishi Axaltaka ot zotlari uchun xarakterlidir. Junning nihoyatda kam o‘siklilik ham shunday ot zotlariga xos belgidir.

Asosiy xo‘jalikdagi ayg‘irlarning o‘rtacha o‘lchamlari (sm) ; qarchig‘ayining balandligi – 158,6 ; gavdasining qiya o‘zunligi –160,8; ko‘krak aylanasi – 176,3; kaft aylanasi – 19,3; biyalarning o‘lchamlari: (shunga muvofiq ravishda) –

156,6 – 159,1 – 174,9 – 18,7 santimetrni tashkil etadi. Axaltaka otlari turli masofalarni yuqori darajada chopqirlik bilan bosib o‘tadi. Bu zotlar sakrab chopganda uzun qadam tashlaydi, shu bois eldek uchayotgandek tasavvur hosil qiladi.



5-rasm. Axaltaka zoti.

3.8.2 Arab ot zotiga tavsif.

Quruq va issiq iqlimli Arabiston yarim orolining sahro va yassi tog‘, quruq cho‘llari, jumladan Nejeda arab otlarining vatanidir. Arablarning Eron va Markaziy Osiyoda olib borgan g‘olibona jangari natijasida qo‘lga kiritilgan eng qadimgi ot zotlarini chatishtirishlardan arab zoti paydo bo‘lgan. Eng yaxshi otlar harbiy o‘lja, o‘lpon, sovg‘alar sifatida ko‘plab Arabistonga keltirilgan. Ot zotlari eramizning IV-VII asrlari davrida shakllangan. Zotni yaratish va keyingi takomillashtirish jarayonida unga O‘rta va kichik Osiyo, Afrikaning O‘rta dengiz qirg‘oqlarining qadimgi ot zotlari, shuningdek o‘ziga xos xalq seleksiyasi usullari, mashaqqatli tarbiya hamda Arabistonning o‘ziga xos sharoitlaridan

foydalanish va hokazolar katta ta'sir ko'rsatdi.

Ko'makchi arablardan badaviylar o'z otlarini boshqa barchalarnikidan shu qadar afzal ko'rdilarki, ularni boshqa zotlar bilan chatishtirishga yo'l qo'ymadilar. Shu boisdan ham zotlar mo'tlaqo sofligicha urchitilardi. Arablar janglarda va safarlarda faqat biya minardilar. Aynan ov paytlarida va ba'zan bir necha yuz kilometrlarga boradigan yurishlarda, joylarning juda qiyin sharoitlarida nasl olish uchun biyalar tanlanardi. Otlarga nisbatan deyarli bardoshsiz talablar qo'yilardi. "Badaviylarning fikricha, maqbul darajada o'stirilgan arab oti suvoriyni, uning quroli, aslahalarini, oziq-ovqatni va emini, bayroqni, shuningdek yarador yoki halok bo'lgan o'rtog'ini ustida olib yurmog'i va ozuqlantirish va sug'orishga to'xtalmagan holda yaxshi qadam tashlab bormog'i kerak". (O.A.Balakshin). Bunday talablarga faqat baquvvat otlargina chidash bergan. Ayg'irlar go'zalligi, jussasi va mashqlarga qobilligiga qarab xillangan. Nasl uchun yuz yillar davom etgan bunday tanlashlar pirovardida yuksak standart sof qonli arab ot zotini vujudga keltirdi. Buni qarangki, ishchanligi va jussasi jihatidan talabga javob bermaydigan barcha otlar, hatto ularning butun-butun oilalari brakka chiqarilardi.

Arablarining VIII asr boshlarida Pirney yarim oroli va Fransiya kirib borishlaridan e'tiboran arab oti Evropaga ma'lum bo'la boshladi. Evropa respublikalarida salbiy yurishlar (XI-XII asrlar) vaqtlarida Arab oti keng dong taratdi. Turkiyaga qarshi urush davrida (XVII-XVIII asrlar) Polsha hamda Vengriyada ko'plab arab otlari paydo bo'ldi. Evropaning turli respublikalarida arab otlari o'rtasida bebaholari ham bo'lib, ular ko'pgina ot zotlarini chiqarishda katta rol o'ynaydi. Masalan, salt miniladigan sof qonli ingliz ot zotini yaratishda "Beyerley-Terk", "Galas-Arabian", "Malla Arab", kabi arab ayg'irlaridan keng ko'lamda foydalanilgan.

Arab oti qisqa masofali poygalarida sof qonli saltbop zot sifatida yuksak chopqirlik sifatlariga ega emas. Uning hayrat qilarli tomoni – bardoshlilik va katta tig'iz ishlardan keyin kuchini tez tiklash xususiyatidir. Uning oyoqlari va tuyoqlar, boshqa zotlardagi otlarnikiga qaraganda kichikroq bo'lsa hamki, mustahkam bo'ladi. Arab oti o'rgatishga oson ko'nikadi. Jussasining go'zalligi bilan

uyg'unlashgan sog'lom konstitutsiyaning irsiy belgilarini olib yuruvchi sof qonli arab oti – jahondagi ko'pchilik ot zotlarini yaxshilovchi hisoblanadi.

Trakenan ot zavodida arab ayg'irlaridan 200 yil davomida turli darajada foydalanildi. Vengriya oti gidranga zot ajdod boshi «Gibran» laqabli arab ayg'iriga qarab nom berilgan. Arab ot zoti Ruminiya, Bolgariya, Yugoslaviya, Ispaniya, AQSH, Kanada va ko'pgina boshqa respublikalarda mahalliy otlarni yaxshilab keldi va yaxshilamoqda.

Yilqichilikning arab otiga ehtiyojini qondirish maqsadida ko'pgina respublikalarda sof qonli arab otlarini urchitish bo'yicha ixtisoslashtirilgan ot zavodlari bor.

Rossiyaning davlat hujjatlarida arab oti to'g'risidagi dastlabki rasmiy yozuvlar XVII asr boshlariga taalluqlidir. Deyarli aynan shu vaqtda Angliyaga ham birinchi ayg'ir «Markxem Arabian» keltirilgandi. XVIII asrning ikkinchi yarmida turk urushlari davrida ko'plab arab otlari keltirilgandi. Sof zotli arab ayg'irlari Rossiya yilqichiligiga g'oyat katta ta'sir ko'rsatib, salt miniladigan orlov va rus ot zotlarining negizi bo'lib qoldi.

XIX asrning ikkinchi yarmida otlarning Strelets zoti yaratildi. Bu ot kelib chiqishi jixatidan to'la qonli arab zoti bo'lgan-u, lekin yirik bo'ydorligi bilan farq qilgan.

XX asr boshlarida Rossiyada arab zotidagi otlarni sofligicha urchitadigan yoki boshqa zotlar bilan chatishtiradigan xo'jaliklar 50 dan ko'proqqa borardi. Ulug' Vatan urushidan keyin otlarning Terskaya deyilgan yangi salt miniladigan zoti tasdiqlangandi. Uni yaratishda ham sof qonli arab otlari etakchi rol o'ynaydi.

Hozirgi vaqtda Markaziy Osiyo, Qozog'iston, Zakavkazya va Shimoliy Kavkazning cho'l va tog'li rayonlarida zotlarni arab otlari yaxshilamoqda. 76-sonli Jizzax ot zavodi va Qashqadaryo viloyatidagi ot zavodi naslchilik ishlarida Terskiy ot zavodida o'stirilgan sof qonli arab ayg'irlaridan foydalanilayapdi.

Hozirgi arab otlarining ekstereri quyidagicha xarakterlanadi: keng peshonalik boshi uncha katta emas, bet qismi kalta, katta-katta ko'zlari sergak qarab turadi.

To'g'ri profilli bo'ladi. Aksariyat otlarda bo'yin o'rtacha o'zun bo'lib, dadil ko'tarib turadi. Qarchig'ayi o'zun, baland, kuragi o'rtacha o'zun, maqbul darajada nishabli. Sag'ri normal uzunlikda, keng, bir me'yorda osilgan, dumg'aza suyaklarining qisqaligi zot uchun xarakterlidir. Ko'krak qafasi, keng, chuqur, keskin egilgan soxta qovurg'alari yaxshi rivojlangan. Oyoqlarning qo'yilishi maqbul darajada. Konstitutsiyasi quruq, mustahkam. Muskulaturasi yaxshi rivojlangan, pay va boylamlari mustahkam, o'sib ketgan bo'g'imlari va suyak ustlarining deyarli yo'qligi zotga mos belgi bo'lib, suyaklari mustahkamligidan dalolat beradi.

Ko'k (45%), malla (35%) va to'riq tusli (20%) otlar bu zotda ko'p uchraydi. Arab zoti otlarining o'rtacha o'lchamlari (sm); ayg'irlarida qarchig'ay qismidagi balandlik – 154, gavdaning qiya o'zunligi – 154, ko'krak aylanasi - 178, kaft aylanasi – 19,3, biyalarda (davlat zot kitobining VI jildi ma'lumotlarga ko'ra) shunga muvofiq ravishda 150,4 – 150,1, 1 – 177, 2 – 18,5 santimetrga boradi.

Sof qonli arab otlarining bir tekis chopishlaridagi rekordlari quyidagicha; ikki yoshli otlar uchun – 1000 m – 1 min. 07,6 sekund («Mashun»), 1200 m – 1 min. 18.4 s («Sputnik»), 1600 m – 1 min. 46 s («Mig»); uch yoshliklar uchun 2400 m – 2 min. 41 s («Privet»); to'rt yoshlik va kattaroqlar uchun 1000 m – 8 min. 59,7 s («Knippel»).

Hozirgi vaqtda «Koxeylan-1», «Pilouna», «Nasim», «Qoreya», «Amurat», «Mansur», «Eldere», «Kuxaylan», «Xayfi» kabi ettita nasl-nasabiga oid liniyalar ustida seleksiya ishlari olib borilmoqda.

Arab oti zotini takomillashtirish borasidagi asosiy vazifalar yirik bo'ydorlik, mustahkam konstitutsiyaga doir zot doirasidagi barcha tiplarni saqlashdan, ularning ish va sport sifatlarini yanada yaxshilashdan iboratdir.

Rossiya seleksiyasi mahsuli bo'lmish arab otlari nasldor va sportbop otlarning Xalqaro auksionlarida obdon xaridorgir bo'layapti. 1955 yildan e'tiboran horijiy respublikalarga 535 bosh ot sotildi. 1981- yili «Pesnyar» laqabli ayg'irni 1 mln dollarga sotilishi chindan ham hayratomo'z tassurot qoldirdi. Gollandiya, FRG, AQSH, Angliya, Italiya, Polsha va Albaniya ot zavodchalari bizdan ot sotib

olishga katta qiziqish bilan qaraydilar. Chet elga sotilgan otlardan zot ustida naslchilik ishlarini olib borishda muvaffaqiyat bilan foydalaniladi. Bundan tashqari, «Menes» laqabli ayg'ir va uning bolalari «Butsefal» va «Baltika» AQSH ot zavodchilariga 2 mln. 500 ming dollarga ijaraga berilgan. AQSH, GFR va Angliyada butkul MDX dan olingan otlar bilangina butlangan bir talay xo'jaliklar bor. 1985-yil bo'lgan xalqaro auksionda «Peleng» laqabli ayg'irni 2 mln. 350 ming dollarga Amerikaliklar sotib olgan.

Terskiy ot zavodining arab zot otlari o'zlarining yangi xo'jayinlari yashaydigan respublikalardagi ko'rgazmalarda hamda konkurslarda chempion unvonlariga va sovrinlarga sazovor bo'ldi. To'liq bo'lmagan ma'lumotlarga qaraganda, AQSH va Kanadaning (1980 -yilgi) milliy chempioni «Musbat» laqabli ayg'ir, AQSH milliy chempioni (1981- yil) «Marsianin» laqabli ayg'ir har-xil xorijiy ko'rgazmalarda zot chempionlari sifatida e'tirof etilgan. Parijdagi butun jahon ko'rgazmasida (1975 -yil) «Katun» laqabli biya chempion bo'ldi. Kilimanjaro (1972- yil) va «Salon» (1973-yil) laqabli ayg'irlar GFR chempionlari bo'lishdi. «Napraslina» (1967-yil) va «Naxodka» laqabli biyalar (bunda «Naxodka» - ikki marta) Angliya ot zotining milliy chempionlari bo'lishgandi. «Muslin» laqabli ayg'ir Gollandiya (1979-yil) va G'arbiy Evropa (1980-yil) nasl ayg'irlari o'rtasida eng yuksak bahoga sazovor bo'ldi.



6-rasm. Arab ot zoti

3.8.3 O'rganiladigan salt miniluvchi ot zotlarining tana o'lchamlari bo'yicha tavsif

1- jadval

Salt miniluvchi ot zotlarining tana o'lchamlari bo'yicha tavsif.

Zotlar	jinsi	O'rtacha ulchamlari, sm			
		Qarchig'ay balandligi	Tananing qiya o'zunligi	Ko'krak aylanasi	Kaft aylanasi
Arab	a	154	151	178	19,25
	b	151	151	177	18,7
Axaltaka	a	154	154	167	19
	b	152	154	165	18
Sof qonli salt miniluvchi	a	162,8	163	186,5	20,2
	b	161,5	160	182,5	19,55

3.8.4 O'rganiladigan salt miniluvchi ot zotlarni GIT bo'yicha rekord chaqqonligini o'rganish

O'rganiladigan 3 ta zotni tana o'lchamlarini bir-biri bilan taqqoslab taxlil qiladigan bo'lsak sof qonli salt miniluvchi Angliya zoti o'zining qarchig'ay balandligi, gavdvning qiya uzunligi, ko'krak aylanasi va kaft aylanasi bo'yicha Arab va Axaltaka zotlariga nisbatan 8.9 sm va kaft aylanasi bo'yicha 1,1.5 sm ziyod ekanligi aniqlandi. O'rganiladigan 3 ta zotni Sof qonli salt miniluvchi, Arab va Axaltaka ot zotlarni masofa oraliqlari metr hisobida rekord chaqqonligini 1000, 1200, 1400, 1500, 1600, 1800, 2000, 2400, 2800, 300, 3200, 4000, 4800, 7000 rekord chaqqonligi shuningdek GIT hisobida tezligi taqqoslab taxlil qilganimizda sof qonli salt miniluvchi zot, Arab va Axaltaka zotlariga nisbatan tezlik hisobida yuqori ekanligi aniqlandi

2 - jadval

Salt miniluvchi ot zotlarning GIT bo'yicha rekord chaqqonligi
(1 git,1,5 git, 2 git,2,5 git, 3 git va 7 km bo'yicha)

Zotlar	Masofa oraligi, m						
	1000	1200	1400	1500	1600	1800	2000
Sof qonli salt miniluvchi	0,58,0	1,11,4	1,23,0	1,30,0	1,37,0	1,49,0	2,02,0
Axaltaka	1,06,7	1,18,6	1,32,0	1,39,7	1,43,6	2,00,0	2,13,6
Arab	1,07,8	1,18,4	1,33,7	1,40,0	1,45,2	1,58,6	2,13,0
Zotlar	Masofa oralig'i, m						
	2400	2800	3000	3200	4000	4800	7000
Sof qonli salt miniluvchi	2,27,2	2,56,7	3,11,0	3,22,2	4,22,0	5,20,0	8,16,2
Axaltaka	2.42,0	3,12,4	3,27,2	3,48,1	4,40,5	-	9.06,0
Arab	2,41,0	3,12,8	3,26,0	3,40,5	4,4 2,3	-	8.59,7

IV. EKOLOGIK MUAMMOLAR, HAYOT FAOLIYATI VA TEXNIKA XAVFSIZLIGI

Ekologiya (grekcha *oikos* – yashash joyi) tutgan o‘rni hamda uyur turkumi bilan bir biridan va atrof muhit bilan o‘zaro munosabatlari to‘g‘risida fandır.

Ekologiya birinchi kunda biologik, geografik va tabiatshunoslik fanidan olingan bo‘lib, tabiatni ishlata bilishi va muhofaza qilish jarayonida boshqarish to‘g‘risidagi fanga aylandi. Olimlar o‘z mohiyatiga ko‘ra yaxshi bo‘lgan bu fanni global etologiya tabiatdan foydalanish nazariyasi, inson ekologiyasi deb atamoqdalar.

Ekologik ilmiy – tadqiqot ishlarida ko‘pincha tasvirni taqqoslash , tajriba hamda ekosistemalarni modellashtirish uslublaridan foydalaniladi. *Masalan:* agar shaharlardagi ekologik vaziyat yomonlashadi deyilsa odatda atmosfera zahar qobiqlari va avtotransport vositalaridan chiqqan gazlar ko‘payib ketgani, ichimlik suvi yomonlashganligi suv havzalarining ifloslanishi ortib ketishi tushuniladi.

Keyingi 50 yil ichida O‘zbekistondagi ekologik iqtisodiy sistemasi muvozanatida ba’zi bir voqealar sodir bo‘ladi. Qishloq xo‘jaligi va atrof – muhitni muhofaza qilish o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, bir – biriga katta ta’sir ko‘rsatadi. Zero bu o‘zaro aloqadarlik va o‘zaro ta’sir ijobiy bo‘lishi ham, salbiy bo‘lishi ham mumkin. Yoqimsiz hidlarning paydo bo‘lishi, go‘ng shiltig‘i, ozuqa qoldiqlarining buzilishi, silos va senajning noto‘g‘ri tayyorlanishi va boshqa faktorlarga bog‘liq. Bunday jarayonlar natijasida ammiak, serovodorod va boshqa moddalar hosil bo‘lib, ular jonivorlarning sog‘ligiga zaharli ta’sir ko‘rsatib, hosildorlikni pasaytiradi. Shuningdek, chorva mollariga xizmat ko‘rsatuvchilarning sog‘ligiga zaharli ta’sir ko‘rsatib, hosildorligini pasaytiradi. O‘tkazilgan tadqiqot ishlari shuni ko‘rsatadiki, sutchilik fermalari atrofidagi havo tarkibida boshqa joylardagiga qaraganda 20 marta ko‘p ammiak mavjud. Serovodorod ayniqsa havflidir u yopiq binolarda go‘ng to‘planib, qoladigan pol yoriqlarida ayniqsa ko‘plab yig‘iladi. Har gektar erga 4 tonna parranda go‘ngi solingan maydonda

boqilgan hayvonlarda uzak vaqt davomida yog' bosish (distrofiya) kasalligi kuzatiladi.

Tabiiy havzalariga chorcachilik xo'jaliklarining tozalanmagan oqavarining qo'shilishi natijasida yer ustki va yer osti suvlarining ifloslanishi yuz beradi. Silos suyuqligi qo'shilishi natijasida sodir bo'ladigan ifloslanish darajasi maishiy chiqindilarnikidan 150 marta yuqoridir. Bir litr shunday suyuqlikni zararsizlantirish maqsadida aralashtirish uchun 3500 l toza suv kerak bo'ladi. Go'ng shaltog'i va silos suyuqligining suv havzalariga qo'shib qolishi suv tarkibidagi erigan kislorod miqdorini keskin kamaytirib yuboradi.

Sanoatlashgan chorcachilik yirik suv iste'mol qiluvchilar masalan, 1m³ sut ishlab chiqarish uchun 5m³ 1 tonna go'sht ishlab chiqarish uchun 20 ming m³, bitta ona cho'chqani saqlash uchun sutkasiga 234 litr suv kerak bo'ladi. Fermalardagi sanitariya – gigiena sharoitlari ham asosan suv yordamida saqlab turiladi. Mollarni cho'miltirish binolarni tozalash va dizinfeksiyalash, ozuqa tayyorlash idish va apparaturalarni yuvish, go'ngni tozalash va boshqa ishlarning hammasi uchun suv talab qilinadi. Chorcachilik komplekslari va parrandachilik fabrikalaridagi yetarli darajada takomillashmagan texnologiyalar havoni kimyoviy va biologik jihatdan ifloslanishiga sabab bo'ladi. Mollarni saqlash binolari, bordoqichilik maydonchalari, go'ng saqlanadigan joylar, biologik sun'iy ko'llar, oqava suvlar to'planadigan joylar, filtrlash maydonlari, sug'orilish maydonlari va boshqa joylar atmosferani ifloslantiradigan asosiy manbalar hisoblanadi. Chorcachilik komplekslari zonasidagi atmosfera havosi mikroorganizmlar, chang, ammiak va ko'pincha badbo'y hid tarqatuvchi hayvonlarning hayotiy faoliyati mahsulotlari (45 dan ortiq turli moddalar) bilan ifloslangan. Bunday hidlar, ayniqsa cho'chqachilik komplekslaridan ancha uzoq masofa (10 km) gacha tarqalishi mumkin, ferma va komplekslarni joylashtirishda shamolning asosiy yo'nalishini, turar joy havzalaridan uzoqligini albatta hisobga olish kerak. Joylardagi sanitariya –gigiena holatini yaxshilashda ko'klamzorlar katta rol o'ynashi lozim. Hozirgi kunda asosan organoleptik ko'rsatkichlar bo'yicha (badbo'y o'ziga xos hidlar) qo'yidagi hajmdagi sanitariya himoya zonalari tavsiya etiladi: tovuqlar (400

– 600 ming) – 2,5 km, yirik shoxli qoramol (10 ming) – 3, qo‘y – echkilar (108 ming) – 5, cho‘chqalar (126 ming) – 10 km.

Go‘nglarni o‘z vaqtida tashqariga olib chiqib tashlash, uni maxsus go‘ng to‘playdigan joylarda saqlash, ulardan dalalarni o‘g‘itlash uchun foydalanishda zararsizlantirish, avariya holatlarini tezroq bartaraf etish, qishloq joylarida sanitariya holatini saqlab turishga yordam beradi va qishloq xo‘jaligi faoliyatining salbiy oqibatlarini keskin kamaytiradi. Bundan tashqari silos tayyorlash, ularni saqlash, joylarini tozalash, ishlab chiqarish chiqindilarni yoqishda, mineral o‘g‘itlarni ochiq mashinalarda tashish atmosfera havosini ifloslantiradi. Havoni ifloslantiruvchi bunday manbalarning hammasini tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini rejalashtirishda albatta e‘tiborga olish kerak.

Bu suv resursining ulgurmasligi va ularning uslubi xo‘jalik sanoat chiqindilari bilan ifloslanish darajasining ortib ketishiga alohida hollarga ko‘proq hosildorlikning pasayib ketishiga va O‘zbekistonning ko‘pchilik shaharlarida havo qatlami holatining yomonlashuviga olib keladi.

O‘zbekistonda ham boshqa respublikalardagi kabi atrof – muhitni muhofaza qilish va tabiat resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha kompleks tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Yirik chorvachilik komplekslari va parrandachilik fabrikalarida ko‘pincha atrof – muhitni ifloslantiruvchi eng zararli joylarga joylashtiriladi. Atrof – muhitni sanoat, chorvachilik komplekslari tomonidan ifloslantirilishi. Qishloq xo‘jaligini ifloslantirishlariga kiradi. Chorvachilik komplekslarida juda ko‘p go‘ng hosil bo‘ladi. Uni cheklangan hududga to‘planib qolishi atrof muhitni ifloslanishiga olib keladi.

Tabiiy pana joylarga tog‘ yon bag‘irlarida, o‘rmonzorlar, butazorlar kiradi. Yaylovda suvdan foydalanish ishlari ko‘zdan kechirilib amalga oshiriladi. Yaylovga haydashdan oldin yaylovlar va ularga beradigan yo‘llarni veterinariya jihatdan havfsizligini ta‘minlash zarur. Yilqilarni saqlashda mehnat xavfsizligi, veterinariya – sanitariya holati bo‘yicha yaxshi bo‘lgan barcha xo‘jaliklarda amalga oshirish mumkin.

Qimiz tayyorlanadigan bino sog'iladigan tuyalar uyuridan kamida 0,5 km. uzoqlikda joylashgan bo'lishi kerak. Biyalarni sog'ish uchun meditsina ko'rigidan o'tgan, sog'lom sog'uvchilar jalb etiladi va har oyda bir marta meditsina ko'rigidan o'tkazilib turiladi. Masalan 10 ming bosh qoramol saqlanadigan bo'rdoqichilik maydonida har kuni 200 tonnagacha go'ng to'planadi. Tabiiy suv havzalariga chorvachilik xo'jaliklarining tozalanmaganligi ahvolining kutilishi natijasida yer usti va yer osti suvlarining ifloslanishi yuz beradi. Silos suyuqligi qo'shilishi natijasida sodir bo'ladigan ifloslanish darajasi molning chiqindilaridan 150 tonnaga yuqoridir. Ayniqsa suv manbalarining zararli o'tlar bor yo'qligini tekshirib kuzda tog' oralig'idagi urilgan o'tlarni kuydirib yuborish kerak.

Ko'pincha yilqilarshu o'tlarni iste'mol qilib, kasallanishga sabab bo'ladigan zamburug'lar ana shu o'tlarda rivojlanadi. Chirigan ildizlaridan esa zararli hasharotlar uchraydi. Katta yoshdagi yilqilarko'pincha ba'zi bir zaharli o'tlarni emaydi. Sog'uvchilar va qimiz tayyorlovchi texnologlar doimo toza holatlarda bo'lib, o'zlarining oyoq kiyimlarini va qo'llarini toza tutishi kerak.

Biyalarni sog'ish maxsus jihozlangan maydonlarda amalga oshirilib, avval sog'iladigan biyalarni maxsus quralarda qaraladi va quralardan maxsus bino yo'laklari orqali sog'ish maydonchasiga o'tadi. Sog'ilgan biyalar esa yana maxsus yo'laklar orqali sog'ib olingan biyalar to'blanadigan quralarga o'tadi. Biyalarni sog'ishga o'rgatish ularning laktatsiyaning boshidan boshlab amalga oshiriladi va bunda ularni majburlash qat'iy man qilinadi.

Sog'ishni birinchi kunlari va sog'ish kunlari sog'uvchi o'ng qo'lini biyaning orqasiga qo'ygan holda chap qo'li bilan biyaning shishini uqalaydi. Biyalarni sog'ishning ikki usuli bo'lib, bu mashinada, qo'lda qilish mumkin.

Insoniyat tarixidan va ijtimoiy hayotidan shu narsa aniq-ki, har qanday tarixiy davr va har qanday asr dunyo hamjamiyati oldida o'ziga xos, ilgarilaridan farq qiladigan muhim va dolzarb muammo va masalalarning ko'ndalang qilib qo'yadi. Bizning holatimizga kirib qolgan XXI asrning eng muhim muammolaridan biri bu ekologik muammo hisoblanadi. Ushbu muammoning havfli oqibatlari to'g'risida olimlar deyarli bir asrdan buyon jar solib insonlarni,

dunyo hamjamiyatini ogoh qilib kelgan. Shunga qaramasdan ushbu muammo bugungi kunga kelib, o'zining salbiy oqibatlarini ko'rsatmoqda. Boshqacha qilib aytganda ko'pgina hududlarda ekologik holat o'zgargan, natijada iqlim sharoiti o'zgaruvchan bo'lgan, ko'pgina mamlakat va hududlarda suv zahirasi kamaygan, atmosfera ifloslangan, cho'llanish, tuproq eroziyasi, yaylovlarning o't-o'lanlarini siyraklashishi, hayvonot va o'simliklar dunyosining kambag'allashib ko'pgina tur va populyasiyalarning yo'qolishi tuproqning sho'rlanishi, yer oti zax suvlarning tuproq yuzasiga ko'tarilishi, qum ko'chish, suv manbaalarida uning miqdorini kamayishi, har xil tabiiy ofatlar 2000-yillarda Indoneziya va Yaponiya yer zilzilasi, atom energetik stansiyalarining portlashi, ishdan chiqishi (Rossiya) kabi salbiy holatlar aynan ekologik holatning talab darajasida emasligida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston respublikasida Orol suvining kamayishi natijasida tuzning ko'payishi va uni jamoa orqali mamlakatning shimoliy hududlarida tarqalib yer unumdorligiga salbiy ta'sir qilishi, Surxondaryo viloyatining janubiy hududlarida "Afg'on shamoli" deb nom olgan issiq qum yog'dirilishi, tupolonli shamollarning yildan-yilga oshib borishi va bir necha kungacha davom etishi, viloyatning shimoliy tumanlarida Tojikiston alyumin zavodining zaharli chiqindilaridan aholi, hayvonlar va o'simliklar dunyosining aziyat chekishi, atrof muhitning ifloslanishi aholi yashaydigan hudud, tuman va ayniqsa shaharlarda tabiiy holdagi ichimlik suvlarining ifloslanishi va iste'molga yaroqsizligi, ko'cha-qo'ylarni chiqindi va axlatlar bilan sanitariya holatini o'zgarishi va boshqalar ekologik holatning buzilganligidan dalolat beradi. Bu holatni to'g'rilash va uni yaxshilash uchun:

- Aholining, ayniqsa maktab o'quvchilari, o'rta maxsus, kasb-xunar va oliy o'quv yurtlari talabalarini ekologik savodxonligini oshirish. Buning uchun ekologik fanini o'qitish samaradorligini ta'minlash, tashviqot va tushuntirish ishlarini olib borish;
- Suv manbaalaridan unumli foydalanish, qurib borayotgan Orolni "tiklash" chora-tadbirlarini ko'rish. Orol bilan bog'liq bo'lgan ekologik muammolarni oldini olish;
- Tabiatda yo'qolib borayotgan hayvon va o'simlik turlari va populyasiyalarni saqlab qolish, ularni ko'paytirish, chora-tadbirlarini ko'rish. Buning uchun maxsus

o'simlik va hayvonot bog'larini, qo'riqxonalarni tashkil etish, mavjud bo'lgan "Qizil kitob" dan maqsadli foydalanish, yo'qolib borayotgan hayvon va o'simliklarni genofondini sof holda saqlab qolish, imkon darajasida uni boyitish;

- Har bir korxona, muassasa, qishloq xo'jalik korxonasi va ta'lim muassasalarida ekologik holatni yaxshilash borasida maxsus tadbirlar tashkil qilish, har bir shaxsni o'zi yashab turgan hududda ekologiya uchun mas'ul ekanligini uqtirish va talab qilish;

XULOSALAR

Otni mashq qildirish deganda otlarni maksimal talablar bilan har xil yurish usullari va davomiylikda choptirish, ya'ni sovutish tushuniladi. Sinash natijasida esa hayvonning irsiy sifatlari ayon bo'ladi, bu esa o'z navbatida otlar zotini yaxshilashga aratiladigan naslchilik ishlarida katta ahamiyat kasb etadi.

1. Otchopar sharoitida otlarni chiniqtirish jarayonida ularga har xil mashqlar bajartiriladi. Bunda chopish suratini oshirib borish (tezligini oshirish) muskullarini kuchaytirish bilan bog'liq bo'lgan mashqlar amalga oshiriladi.

2. . Doimiy mashq qildirishdan maqsad – otlarning chidamliligini oshirish, muskul va paylarini mustahkamlash, yurak – qon tomirlar va nafas olish yo'llarini rivojlantirishdan iborat.

3. Otlarni mashq qildirish (*trening*, ingliz so'zidan olingan) deb shunga tushuniladiki, otlarni har xil yurish usul (*allyur*) doimiy jadallik bilan davom etkazish tayyorlashga; sinash deganda eng yuqori bor kuch bilan ishni bajarish orqali sinab irsiyatlarni nasldan-naslga o'tishni, ichki sifatlarni o'zaro bog'liqligida ot zotlarini takomillashuvida naslchilik ishining muhimligiga olib keladi. Ba'zi mashqlar tezligini oshirishga, to'siqlardan o'tishga, ish qobiliyatini oshirishga, boshqalari mushaklarini rivojlanishiga, yurak-qon tomirlar sistemasini, nafas olish organlarini yaxshilaydi.

4. Otchoparlarda sinab ko'rilganda o'ziga xos harakatga soluvchi reflekslar ishlab chiqariladi.

5. Ot ish va sport hayvoni bo'lganligidan ulardan olingan naslning ishga yaroqlilik darajasi katta ahamiyatga ega. Otlarning ishga yaroqliligi esa otchoparlarda poygada chopishi, har xil musobakalarda qatnashishi va yuk tortishiga qarab baholanadi.

6. Tana qismlarini ob'ektiv baholashda zootexnik chuqur bilimga ega bo'lishi kerak. Ba'zi bir nuqsonlarni aniqlash juda qiyin bo'ladi. Shuning uchun instruksiya va naslchilik kitobida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, sport otlarni

bonitirovka qilish, ularning nasldorligini baholash (elita, I klass, II klasslarni) aniqlashda amalga oshirilishi kerak.

7. Nasldor sport otlar klasslari bo'yicha bonitirovka qilishda 10 ball sistemasi orqali amalga oshiriladi va 5 ta ko'rsatishi bo'yicha baholanadi.

a) kelib chiqishi va tiniqligi

b) tana o'lchamlari

v) eksteryeri - tana qismlari

g) ish qobiliyati

d) bolalarining sifati

Otlarda uchraydigan nuqson va kamchiliklarni bilish uchun har bir ko'rsatkichi bo'yicha amalga oshirilishi kerak.

Otchopar sharoitida otlarni mashq qildirish va sinovdan o'tkazish ishlari u yoki bu zotlarni yetishtirish maqsadlariga qarab amalga oshiriladi. Masalan, Sof qonli va boshqa otlarni mashq qildirish va sinovdan o'tkazish ularni sakrab chopishlarida tezligini oshirishga, yo'rtoqi otlarni yaxshi va bir me'yorda harakat qilishiga, chaqqonligi va bardoshligini, og'ir yuk tortadigan otlarning kuchini oshirishga yordam beradi.

ISHLAB CHIQARISHGA BERILADIGAN TAKLIF VA TAVSIYALAR

1. Otlarni mashq qildirish va sinashda otlarda har xil nuqson va kamchiliklar bo'lmashligi uchun ayniqsa ko'pkari va klassik o'yinlarda o'ynashda boshi va oyoqlariga urmaslikni taklif qilamiz.

2. Otlarda uchraydigan har bir nuqson va kamchilik uning ish qobiliyatiga, nasl qiymatlariga sotish bahosiga ta'sir etadi. Bunday nuqsonlarga ko'proq echki oyoq, xo'roz yurish (shpat), jabka rarer, brakdaun, bukshin, kurba va boshqa nuqsonlari bo'lmashligi uchun otlarni zooveterinariya qoidalariga rioya qilgan holda otlardan foydalanishni tavsiya etamiz.

3. Nasldor otlar va ularning duragaylarida kamchilik va nuqsonlarini aniqlash uchun beshta ko'rsatkichlari: kelib chiqishi va tipikligi, tana o'lchamlari: eksterer tana qism-lari; ish qobiliyati, bolalarining sifatiga qarab 10 ball sistema asosida ularning nasldorligini baholash (elita, 1 klass 2 klasslarni aniqlash orqali bonitirovka o'tkazishni tavsiya qilamiz")

4.Sport otlarni mashq qildirish va sinashda meyor asosida oziqlantirib,sug'orib, havo haroratini inobatga olgan holda zotlarni sharoitga moslashishini inobatga olib avvalo mashq qildirib, ot bilan chavondozni bir-birini tushungandan keyin sinab ko'rishni tavsiya etamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. «Yaylov chorvachiligini qorako‘lchilik, qo‘ychilik, uyur yilqichiligi va tuyachilik xodimlarini ijtimoiy jihatdan himoya qilishning qo‘shimcha tadbirlari to‘g‘risida» - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. Toshkent 1992 y. 7 yanvar
2. “Naslchilik to‘g‘risida”gi Davlat qonuni. Toshkent 1995 y. 21 dekabr
3. “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Davlat qonuni. Toshkent 1998 y. 30 aprel.
4. «Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollarini ko‘paytirishni rag‘batlantirishni chora – tadbirlari to‘g‘risida» - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Toshkent 2006 y. 23 mart
5. «Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollarini ko‘paytirishni rag‘batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo‘shimcha chora - tadbirlari to‘g‘risida» - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Toshkent 2008 y. 21 aprel P.K.842
6. Alekseev N.D., Stepanov N.P “Loshadi mechejenskogo tipa v YAkutskoy porode”. J.Konevodstvo i konnyy sport. 2006 № 2 str.29
7. Alibaev N.N.,Abubakirov X.A., N.N.Nayzabekov N.N. “Продуктивные особенности пород джамбы”. Nauchno – prakticheskie aspekty razvitiya rastenevodstvo i jivotnovodstva v YUgozapadnom regione Kazaxstana.
8. Balakshin O.“Klassicheskie skachki SSHA Konevodstvo i konnyy sport”1992 N 5-6
9. Bulatov A. “Jerebyat potrebyayuyushchix bentonit konevodstvo i konnyy sport ”1989 N 12s. 16
10. Idiyatulin X.S. “ Мысные качества bashkirskix loshadey pri pastbiщном содержании в горно лесной зоне Республики Башкортостан”. J. Konevodstvo i konnyy sport. 2004. № 6. 6 s.

11. Kalashnikov V.V. “Proshloe, nastoyashee i budushchee konevodstvo Rossii. Ustoychivoe razvitie tabunnogo konevodstva”. Materialy nauchno – prakticheskoy konferensii. YAkutsk 2008 str.63 – 64.
12. Klomets YU.YU. “Produktivno – biologicheskie osobennosti loshadey xakasskoy gruppy i ix pomesey s orlovskoy rýsistoy i russkoy tyajelovoznoy porodoy”. Avtoreferat kandidata selskoxozyaystvennykh nauk, Krasnoyarsk. 2011
13. Laskov A.L., Sergienko S.S., Sergienko G.F “Podgotovka loshadey verkhovykh porod dlya sporta i eksporta”. J.Konevodstvo i konnyy sport. 2006 №2 str .23 – 24.
14. Melnikov V.M. “ XXII Mejdunarodnyy Mirovoy chempionat Bridere Kap. J.Konevodstvo i konnyy sport”. 2005 str.20.
15. Nikolaeva A.A., K.P.Stepanyan K.P. “Otsenka sportivnoy rabotosposobnosti loshadey Budenskoy породы”. J.Konevodstvo i konnyy sport. 2006 №2 str.10 – 11.
16. Nurmatov A., Bezverxov A. “Otni aravaga qo‘shing”. J.O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. №7. 2006. 28 bet.
17. Nurmatov A., Tog‘aev X. “ Qorabayir zotli otlarda naslchilik ishi”. J.Zooveterinariya. №11. 2010. 30 bet.
18. Politova M.A. “Luchshie sportsmeny loshadi Germanii”. J.Konevodstvo i konnyy sport 2005
19. Sergeeva E.B. “Rýsaki v klassicheskix vidax konnogo sporta”. J.Konevodstvo i konnyy sport. 2006 № str.39-40.
20. Sergienko B.S. “Konnyaya loshad nujna dlya vysadki”. J.Konevodstvo i konnyy sport. 2006 № 5. str.29 – 30.
21. Timofeev M.U. “Model razvitiya tabunnogo konevodstva”. Ustoychivoe razvitie tabunnogo konevodstva. Materialy nauchno – prakticheskoy konferensii. YAkutsk 2008 str.158 – 160.

22. Vladimirov L.N., Vinokurov I.N., Kalashnikov V.V., Sergienko S.S. “YAkutskie loshadi v Sibire i na Dalnem Vostoke”. J.Konevodstvo i konnyy sport. 2004 №4 str.10.
23. Xolmirzaev D., Boshmonov S. “ Qorabayir ot zotining tiplari (xillari)”. Xalqaro ilmiy-amaliy konfrensiya Qishloq xo‘jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy qilish muammolari. Konfrensiya materiallari to‘plami II qism. 2012 yil 149-150 betlar
24. Xolmirzaev D, Samibekov R.B. “Otlarni egarlash Veterinariya hamda chorvachilikning yutuqlari hamda istiqbollari”. Professor R. X Xaitov tavalludining 80-yilligiga bag‘ishlangan respublika ilmiy -amaliy konfrensiyasi materiallari 2006 y 194 bet
23. Xolmirzaev D.“ Otlarga alhida qarashning asoslari”. Professor R. X Xaitov tavalludining 80-yilligiga bag‘ishlangan respublika ilmiy -amaliy konfrensiyasi materiallari 201-204 betlar
24. Xolmirzaev D. “Yilqichilikka e’tibor”. J.O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. 2006. №5. 29 bet.
25. Xolmirzaev D. “Важные элементы технологии”. J. Selskoe xozyaystva Uzbekistana. Toshkent 1993 № 3 str.19.
26. Xolmirzaev D. «Ustoychivoe razvitie tabunnogo konevodstva» Materialy nauchno parkticheskoy konferensii. YAkutsk. 2008. s 241-246.
27. Xolmirzaev D.“ Ot vafodor jonivor”. J.Zooveterinariya. 2008. №1. 34 bet.
30. Shamsiev A.T “ Новые tadjiskie породы”. J.Konevodstvo i konnyy sport. 2006 № 5 str.9 – 10.
31. www.zdravarus.ru 07.09.2011
32. www.zdravarus.ru 24.09.2011ww
33. www.zdravarus.ru 10.09.2011
34. www.zdravarus.ru

ILOVALAR



